

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK: 37.01:35

IBAYDULLAYEVA UMIDA RUSTAMJONOVNA

**«O'SMIRLAR O'RTASIDAGI NIZOLARNI BARTARAF
ETISHDA MAHALLA KENGASHI FAOLIYATINING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK AHAMIYATI»**

Mutaxassislik: 5A110901 – “Pedagogika”

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: p.f.n.prof.

K. HASANOVA

SAMARQAND – 2014

Magistrlik dissertatsiyasi ishi “Pedagogika (faoliyat turlari bo’yicha)”
kafedrasining 2014 – yil _____ № ____ sonli bayonnomasi bilan
datlabki himoyadan o’tgan.

Kafedra mudiri: p.f.n. dots: A.Abdumannotov

Ilmiy rahbar: p.f.n. dots: K.Hasanova

Magistr: U. Ibaydullayeva

MUNDARIJA

KIRISH	4-13
I BOB. O'SMIRLIK DAVRIDA SHAXS SHAKLLANISHIDA MAHALLA KENGASHI FAOLIYATINING AHAMIYATI	
1.1. Yosh davrlarida o'smirlikning o'ziga xos xususiyatlari.....	14-20
1.2. O'smirlik davrida shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar.....	21-26
1.3. O'smirlar shakllanishida mahalla kengashi faoliyatining o'rni va ahamiyati	26-34
II BOB O'SMIRLIK DAVRI TARBIYASIDA OILA, MAKTAB VA MAHALLA HAMKORLIGINING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK ASOSLARI	
2.1. O'smirlar o'rtasidagi ziddiyatlarni oldini olishda oilaning o'rni.....	35-42
2.2. O'smirlardagi agressiv hatti-xarakatlarni bartaraf etishda maktabdagi psixologik muhitning o'rni.....	42-49
2.3. O'smirlarda tajovuzkor hatti-xarakatlar shakllanishini oldini olishda mahalla kengashi faoliyatining ahamiyati.....	50-55
III BOB O'SMIRLARDAGI NIZOLARNI BARTARAF ETISHDA MAHALLA KENGASHI FAOLIYATINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK AHAMIYATI	
3.1. O'smirlarda nizoli vaziyatlarning psixologik tahlili.....	56-61
3.2. Mahallalarda o'smirlar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etuvchi psixokorreksion mashqlar tavsifi.....	61-70
3.3. O'smirlardagi ichki nizolar va ularni bartaraf etishning tadqiqot natijalari.....	71-80
XULOSA.....	81-82
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	83-87

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarining har tomonlama yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishini ta'minlash hamda bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirishni nazarda tutib, shaharcha, ovul, qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlari huzuridagi yoshlar bilan ishlash komissiyalari faoliyatini takomillashtirish va jonlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda O'zbekiston Oqsoqollar Kengashi, «Mahalla» jamg'armasi respublika boshqaruvi hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi qo'shma qaroriga asosan «Fuqarolar yig'inlari huzurida Yoshlar bilan ishlash komissiyasi faoliyati to'g'risida» Nizom namunasi ishlab chiqildi.

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 10 million 360 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizni, 30 yoshgacha bo'lganlar esa - 17 million 80 ming nafarni yoki 64 foizini tashkil etadi. O'z-o'zidan ayonki, aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarimizning hali-beri yechilmagan muammolariga e'tiborimizni jalb etish, ularni hayotimizda haqiqatdan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchiligimizning diqqat markazidadir.

Yurtimizda yashayotgan har bir bolaning o'ziga xos qobiliyati va iste'dodini o'z vaqtida payqash, tarbiyalash va ro'yobga chiqarish - bu o'ta muhim vazifa nafaqat ota-onalarning ezgu maqsadi, balki keng jamoatchilikning burchidir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Bir qator mualliflar o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi, maktab va oilaning muhim ahamiyatga ega ekanligi va ularning bir bilan aloqadorlikdagi masalalarini tadqiq etganlar. Har qanday inson ham o'smirlik chog'ida endigina voyaga yetib kelayotgan davrida jamiyatda munosib o'rnini topishi kerak. Psixologiya faniga o'smirlar xulqining, psixologik xususiyatlarini, amaliy va tadbiqiy tomonlari muayyan darajada o'rganilgan va bu borada izlanishlar davom ettirilmoqda. Jumladan, L.C.Vigotskiy, L.S.Rubinshteyn, A.N.Leont'yev, L.R.Bojovich,

E.G'oziyev, M.Davletshin, N.Shodiyev va boshqalar tomonidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Shaxslararo nizolarning salbiy oqibatlari horijiy va mahalliy psixologik-pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Jumladan: L.I.Bojovich, L.A. Petrovskaya, A.I.Donsov, A.A.Bodalev, M.Ratter, M.M.Ribalkova, G.A.Kovalev, M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, A.I.Ostrovskiy, G.K.To'laganova, Z.Kamaletdinova, N.G.Kamilova kabi olimlarning tadqiqotlarida o'smirlik davrida xos xususiyatlarining u yoki bu qirralari muayyan darajada ochib berilgan. Shuningdek, D.J.Bugental, K.Levin, A.Maslov, K.Rodgers, V.Frankl, A.Freydlarning psixolog nazariyalari taxlilida nizolarning oldini olishda shaxs imkoniyatlarining kuchi masalasiga keng qamrovli yondashuvni ko'rish mumkin.

Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ta'lim jarayonida o'smirlar o'rtasidagi shaxslararo nizolar, ularning xususiyatlari va nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarning tabiati turli-tuman ekanligining guvohi bo'ldik. Maktab psixologi faoliyatida o'smirlik davriga xos shaxslararo nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish va uni negativ asoratlardan saqlashning profilaktikasini faqat psixokorreksion usullarning muayyan shakllarini ya'ni, psixokorreksion ta'sir o'tkazish yo'li bilan bartaraf etish mumkin.

Insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodlarga o'rga-tish, ularni komillikka etaklash yo'llari, qonun-qoidalarini izlaganlar.

Tarbiya jarayonini to'g'ri boshqara olish uchun uni natijalarini baholay olish ham talab qilinadi. Buning uchun biz bolani tarbiyalanganlik darajasini aniqlash o'lchoviga ega bo'lishimiz, kuchlarini bilishimiz zarur.

O'sib va rivojlanib boruvchi inson tarbiya ob'ekti hisoblanadi. Butun hayoti davomida insonning rivojlanish jarayoni davom etaveradi. Bu jarayonda u turli o'zgarishlarni, jismoniy, psixik, miqdor va sifat o'zgarishlarni o'z boshidan kechirib boradi. Insonda bo'ladigan jismoniy o'zgarishlarga uning bo'yini o'sishi, vaznini og'irlashib borishi, suyak va mushak sistemalarini, ichki organlari va asab sistemasini o'zgartirib borishi kiradi. Psixik o'zgarishlar esa, uning aqliy rivojiga

aloqador bo'ladi va insonda shaxsning psixik sifatlarini shakllantirib borishi, unda hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy sifatlarni tarkib topishi hisoblanadi. Odam bolasini rivojlanishi bu muhim jarayon sanaladi. Ma'lumki, hayot davomida inson jismoniy psixik tomonidan o'zgarib boradi. Lekin bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham psixik jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga etadi, bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib murakkab ijtimoiy munosabatlar sistemasida o'ziga munosib o'rin egallaydi.

Odamning munosabatlari doirasiga kishilar bilan aloqasigina emas, balki tabiatga, jamiyatga, hayotga bo'lgan munosabatlari ham kiradi. Mana shu ko'p qirrali aloqalar va munosabatlar zaminida har bir shaxs o'z qobiliyati va qiziqishini o'z bilimi va o'quvini namoyon qiladi, o'z ishiga, vazifasiga, burchiga, xalqiga, vataniga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydi. Tabiiyki, shaxsdagi bu fazilatlar faqat tarbiyaning mahsulidir.

Yangi – 2014-yilning yurtimizda «Sog'lom bola yili» deb e'lon qilingani jamoatchiligimiz, halqimiz tomonidan qanday ko'tarinki kayfiyat va mamnuniyat bilan kutib olinganiga, keng qo'llab-quvvatlanayotganiga barchamiz guvohmiz.

Joriy yilga bunday nom berganimiz, avvalambor, bolalarimizning sog'lig'i haqida, ularning kelajagi haqida ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir amaliy ifodasidir.

Bizning vazifamiz, kerak bo'lsa, oliy burchimiz – farzandlarimizning ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan uyg'un rivojlangan, zamonaviy bilim va tajribalarni puxta egallagan, Vatanimiz va halqimiz kelajagi uchun masuliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishi uchun qo'limizdan kelgan barcha-barcha ishlarni amalga oshirishdan iboratdir,- deb hurmatli yurtboshimiz Islom Karimov bizlarni ulkan ishlarga da'vat qildilar.

Shuningdek, yurtboshimiz “faqat o‘z kuchimiz, o‘z salohiyatimizga tayanib ish ko‘rishimiz kerak. O‘zimiz harakat qilmasak, chetdan kelib birov bizga yordam bermaydi”¹ deb ta’kidlagani buning misolidir.

Shu o‘rinda Xalq ta’limi vazirligining 2004- yil 26- fevraldagi 26-sonli hay’at majlisi qarori bilan **«Oila-mahalla-maktab» Konsepsiyasi** qabul qilindi.

Bu vazifalarni hal etish uchun:

Vazirlikning tashabbusi bilan Respublikamizdagi bir qator Davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda «Jamoatchilik maslahat kengashi» tuzilib, joylarda tarbiyasi og‘ir, huquqbuzarlikka moyil hamda daydib yurgan bolalar bilan ishlash, ularni ta’lim-tarbiyasiga e’tibor qaratish va «Oila-mahalla-maktab» Konsepsiyasini amalda hayotga joriy etishga qaratildi.

Oila va mahalla har tomonlama bir-birlari bilan bog‘liq. Mahalla oilalardan tashkil topadi. Mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisidir.

Mahallaning ustunligi shundaki, bu erda ko‘p yillar davomida birga yashagan, bir-birini bilgan, sinagan, tanigan kishilar istiqomat qiladilar. Ular har bir oiladagi muhitni va har bir bola tarbiyasini, ota-onasini mahallada tutgan o‘rni va obro‘ – e’tiborini, har bir oilaning mavqe-imkoniyatlarini yaxshi biladilar.

Bugun oila, mahalla, maktab o‘zaro hamkorlikda o‘quvchilar orasida qonunbuzarlik va jinoyatni oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirishi, buning uchun esa ularning umumiy hamkorligini har qachongidan ham ortirmog‘i kerak. Shuning uchun, yuqorida aytilgan muammolarni hal etish maqsadida, biz tadqiqot uchun **«O‘smirlar o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ahamiyati»** mavzusini magistrlik ilmiy ishimiz deb tanladik.

Tadqiqot maqsadi:

O‘smirlar o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ahamiyati dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslash.

Tadqiqot predmeti:

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O‘zbekiston. 2011, 13-bet.

O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ahamiyatini ochib berishning pedagogik shart sharoitlarining mazmuni, shakl va metodlari.

Tadqiqot ob'yekti:

Jizzax viloyatidagi ayrim mahallalarda uchraydigan o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ishlarini tashkil etish jarayonidagi pedagogik shart - sharoitlar va ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik chora tadbirlar.

Tadqiqot vazifalari:

- O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ahamiyati dolzarb pedagogik muammo ekanligini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash;

- O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ahamiyatini hal etish jarayonini, amaldagi ahvolini o'rganish va tahlil qilish;

- O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ahamiyatini tashkil etishning pedagogik jarayonini samarali shakl va usullarini aniqlash;

- Jizzax viloyatidagi ayrim mahallalarida uchraydigan o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ishlarini tashkil etish jarayonidagi pedagogik shart sharoitlar va ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik chora tadbirlarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning metodologik asosi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Aholini ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi g'oyalar, Xalq ta'limi vazirligining 2004- yil 26- fevraldagi 26-sonli hay'at majlisi qarori bilan qabul qilingan «Oila, mahalla, maktab» Konsepsiyasi; oila, mahalla, maktab o'zaro hamkorlikda o'quvchilar orasida qonunbuzarlik va

jinoyatni oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirishi me'yoriy hujjatlar va ularning g'oyaviy mazmuni, ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy-nazariy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan pedagogik qarashlar va hokazo.

Tadqiqot metodlari:

Mavzuga oid falsafiy, iqtisodiy, sotsiologik, siyosiy, huquqiy, tibbiy, pedagogik va psixologik manbalarni o'rganish; oila, mahalla, maktab o'zaro hamkorlikda o'quvchilar orasida qonunbuzarlik va jinoyatni oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirishi me'yoriy hujjatlar va ularning g'oyaviy mazmuni, ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy-nazariy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan pedagogik qarashlar, hamda ushbu ishlarni tashkil qilish borasidagi tajribalarni o'rganish, nazariy taxlil, pedagogik kuzatuv, ijtimoiy metodlar (anketa, test, suhbat), modellashtirish, pedagogik tajriba, matematik statistika.

Tadqiqotning ilmiy farazi:

Jizzax viloyatidagi ayrim mahallalarida uchraydigan o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ishlarini tashkil etish jarayonidagi pedagogik shart sharoitlar va ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik chora tadbirlarni aniqlash va ushbu jarayon bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish va tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasini ko'tarish mumkin agarda:

-mahallalarda bolalar dam olishiga, qiziqarli ishlar bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratish, mahallalarda tarbiyaning ta'sirchanligi, homiy tashkilotlar yordamida mahallalarda sport-sog'lomlashtirish maydonchalari tashkil etish, mahallalarda qizlar hayosi, ibosi, turmushga, hayotga tayyorlash haqida bahs, munozaralar o'tkazish, yoshlarda milliy urf-odatlar, azaliy udumlar, tarixiy an'analarni o'rganish, maktab, jamoatchilik, mahalla ahli hamkorlikda tadbirlar o'tkazishni, joylardagi hokimiyatlar, «Mahalla», «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda yordam berishni maqsad qilib qo'ygan umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni tashkil etish jarayoni pedagogik shart sharoitlarni inobatga olgan holda yo'lga qo'yilsa;

- mazkur muammo dolzarb masala ekanligi bolalar va ota-onalar ongiga singdirilsa;

-umumta'lim maktablarida pedagogik shart sharoitlari mazmuni, samarali shakl va metodlari aniqlansa, yosh avlodning jismoniy va ma'naviy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini belgilovchi mezonlar ishlab chiqilsa;

- mazkur muammoni hal etishda umumta'lim maktablarida, jamoatchilik hamda pedagoglarning o'zaro hamkorligi ta'minlansa ko'zlangan maqsadga erishish imkonini beradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ahamiyati ilmiy jihatdan tadqiq etildi.

2. O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ahamiyati pedagogik ilmiy-nazariy asoslari yoritildi hamda mazmuni, samarali shakl, metod va vositalari aniqlandi, yaxlit tizimi ishlab chiqildi.

3. O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ahamiyatini hisobga olgan holda ta'lim tizimi muassasalari bilan jamoatchilikning o'zaro hamkorligi mexanizmi yaratildi.

4. O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ahamiyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

5. Jizzax viloyatidagi ayrim mahallalarida uchraydigan o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ishlarini tashkil etish jarayonidagi pedagogik shart - sharoitlar va ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik chora tadbirlarni mazmun va mohiyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiya sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati:

Mazkur ishda o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyati ushbu muammoni samarali yechimini topishda mahalla kengashining

tarbiyaviy ishining pedagogik-psixologik ahamiyati sifatida qaralmoqda. Ushbu tadqiqotning natijalari ma'lum jihatdan yosh va pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyati imkoniyatlarini chuqurroq va kengroq tasavvur qilishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalari o'smirlarni har tomonlama kamol topishida, jamiyat uchun kerakli shaxs sifatida tarbiyalanishida mahallaning o'rne o'smirlarni tarbiyalashdagi ahamiyati haqidagi tushunchalarni ochib berishga yordam beradi, ularni barkamol shaxs sifatida shakllanishlariga, hayotda va shaxslararo munosabatda yuzaga keladigan nizolarni ijobiy yechimini topishda muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda tadqiqot natijalari sog'lom avlodni tarbiyalashda keng qo'llanilishi mumkin.

Himoyaga olib chiqilayotgan holatlar:

1. O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ahamiyati dolzarb pedagogik muammo ekanligini ilmiy-pedagogik asoslari.

2. O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ahamiyatini hal etish jarayonini pedagogik shart - sharoitlarini hisobga olgan holda uning mazmuni, samarali shakl, metod va vositalari.

3. O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ahamiyatini tashkil etishning pedagogik jarayonini samarali shakl va usullarini aniqlash, ob'ektiv va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish mazmuni.

4. Jizzax viloyatidagi ayrim mahallalarida uchraydigan o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ishlarini tashkil etish jarayonidagi pedagogik shart - sharoitlar va ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik chora tadbirlarni mazmun va mohiyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar.

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari.

Birinchi bosqich (2012- yil sentyabrdan 2012- yil dekabrgacha)da tadqiqot muammosiga oid falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlari, shuningdek, pedagogik ta'lim mazmuni o'rganildi. Shu asosda tadqiqot ishining maqsadi, ob'ekti, predmeti, ilmiy farazi va vazifalari belgilandi. Maqbul metodlar aniqlandi. Dastlabki tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun materiallar tayyorlandi.

Ikkinchi bosqich (2013- yil yanvardan 2013- yil dekabrgacha)da asosiy e'tibor tajriba - sinov ishlarini tashkil etishga qaratildi. Tajriba -sinov ishlarini o'tkazish uchun tajriba maydoni belgilab olindi.

Uchinchi bosqich (2014- yil yanvar - may)da shakllantiruvchi tajriba -sinov ishlari o'tkazildi. Tadqiqot muammosi yuzasidan ishlab chiqilgan metodikaning samaradorlik darajasi aniqlandi, olingan natijalar matematik-statistik metod yordamida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari umumlashtirilganda shu narsa asoslandiki, Jizzax viloyatidagi ayrim mahallalarida uchraydigan o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ishlarini tashkil etish jarayonidagi pedagogik shart sharoitlar va ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik chora tadbirlarni mazmun va mohiyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar yaxshi natija berishi tasdiqlandi.

Ishning sinovdan o'tishi. Dissertasiya Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining Pedagogika fakulteti Pedagogika kafedrasida bajarilgan va himoyaga tavsiya etilgan (2014- yil 29- may, 10 -sonli majlis bayonnomasi). Tadqiqotni olib borishi yuzasidan Jizzax viloyatidagi ayrim mahallalarida uchraydigan o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatining pedagogik-psixologik ishlarini tashkil etish jarayonidagi pedagogik shart -sharoitlar va ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik chora tadbirlarni mazmun va mohiyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi:

Tadqiqot «Kirish», to'qqiz paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, «Xulosa» va «Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati», ilovalardan iborat. Matning umumiy hajmi 90 betni tashkil etib, kompyutor matnda berilgan.

Natijalarni nashr etilishi: dissertatsiya ishi bo'yicha 2 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

I BOB. O'SMIRLIK DAVRIDA SHAXS SHAKLLANISHIDA MAHALLA KENGASHI FAOLIYATINING AHAMIYATI.

1.1. Yosh davrlarida o'smirlikning o'ziga xos xususiyatlari.

Inson hayotining barcha davrini yaxlit tarzda qamrab olgan klassifikatsiyalardan biri butun jahon olimlarining qaroriga ko'ra, 1965 yili Xalqaro Fanlar Akademiyasining mahsus simpoziumida qabul qilingan sxema hisoblanadi. Psixolog B.G.Anan'yev, E.Eriksson va Birrenlar taklif etgan klassifikatsiyaga asoslangan bo'lib, umumlashtirilgan toifalashdir.

Yosh davrlari	Erkaklarda	Ayollarda
Chaqaloqlik	1-10 kun	1-10 kun
Emiziklik davri	10 kundan 1 yoshgacha	10 kundan 1 yoshgacha
Ilk bolalik	1-2 yosh	1-2 yosh
Bolalikning 1- davri	3-7 yosh	3-7 yosh
Bolalikning 2-davri	8-12 yosh	8-11 yosh
O'smirlik davri	13-16 yosh	12-15 yosh
O'spirinlik davri	17-21 yosh	16-20 yosh
O'rta yetuklik davri:		
Birinchi bosqich	22-35 yosh	21-35 yosh
Ikkinchi bosqich	36-60 yosh	36-55 yosh
Keksalik davri	61-75 yosh	56-75 yosh
Qarilik davri	76-90 yosh	76-90 yosh
Uzoq umr ko'ruvchilar	90 yoshdan ortiq	90 yoshdan ortiq

Taraqqiyot yosh davrlarga bo'lishda o'ziga xos klassifikatsiyalar ham bor. Masalan, E.Erikssonda shaxs «Men»ning rivojlanish bosqichlariga tayangan klassifikatsiyasi ham mavjud bo'lib, unda har bir taraqqiyot davrida alohida ahamiyat kasb etadigan sifatlar ham salbiy jihatdan ajratilgan.

1-bosqich (ishonch-ishonchsizlik) – bu hayotning 1-yili.

2-bosqich (mustaqillik va qat'iyatsizlik) – 2-3 yoshlar.

3-bosqich (tadbirkorlik va gunoh hissi) – 4-5 yoshlar.

4-bosqich (chaqaloqlik va yetishmovchilik) – 6-11 yoshlar.

5-bosqich (shaxs identifikatsiyasi va rollarning chalkashligi) – 12-18 yoshlar.

6-bosqich (yaqinlik va yolg'izlik) – keksalik.

7-bosqich (umuminsoniylik va o'ziga berilish) – yetuklik davri.

8-bosqich (yaxlitlik va ishonchsizlik) – keksalik.

Erikson klassifikatsiyasining o'ziga xos qimmatini shundaki, unda shaxsning o'zi to'g'risidagi tasavvurlarning jamiyat ta'sirida o'zgarishi nazarda tutiladi. Shunga o'xshash bosqichlarga bo'lishlar oxirgi paytda yana ko'plab mualliflar tomonidan taklif etilmoqda (G.Grimm, D.Bromley va boshqalar), ularning barchasidagi umumiy mezon shuki, har bir taraqqiyot davri shaxs rivoji uchun nimani taklif etadiyu, shaxs unda qanday rivojlanish ko'rsatkichlariga ega bo'ladi. Ularni tabiiy o'zgarishlarda bilish va o'rganish kerak, chunki busiz shaxs tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Masalan, maktab yoshidagi bolalarga qo'yilgan talablar katta odamlar jamoasiga to'g'ri kelmaydi, yoki bog'cha yoshidagi bola bilan til topishish bilan o'quvchi bilan til topish o'ziga xos pedagogik takti va o'sha yosh sohasidagi bilimdonlikni talab qiladi.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan har bir o'quvchi shaxsini ruhiy holatini o'rganish, yakka holda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi. Bu borada har bir o'qituvchi o'z ustida mukammal psixologik bilimlarga ega bo'lmog'i lozim. Insonning ehtiyojlari uning huquqini belgilabgina qolmay, balki faoliyatini ham, shaxsini ham rivojlantiradi. Aynan ehtiyojlar harakteridagi shaxs mohiyatini tashkil qiluvchi ijtimoiy munosabatlar sistemasi aks etadi.

Shuning uchun ham shaxs sifatlari ma'lum ehtiyojlar va ularni realizatsiya qilish usullari majmuasi sifatida qaraladi. Shuningdek, psixologik tadqiqotlar, natijasidan kelib chiqqan quyidagi fundamental faktlar tarbiya mohiyatini yanada tushunish uchun imkon berdi. Ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun namoyon qilingan hulq shakli o'zi ehtiyojga aylanib qolishi mumkin. Yangi ehtiyojni yuzaga kelishi yangi axloqiy sifatlarni shakllanishiga olib keladi.

Ta'lim-tarbiya bola shaxsini shakllanishiga uch xususiyatini o'zida mujassamlashtirgan holda ta'sir o'tkazadi:

1. Tashqi muhit bola shaxsida qanday aks etganidek, qanday bo'lsa shundayligicha aks etmaydi, balki bola ham faol mavjudot sifatida tashqi muhit ta'siriga o'zini aks ta'sirini o'tkazadi, o'zaro ta'sirlardan so'ng o'ziga xos ravishda bola shaxsida namoyon bo'ladi.

2. Tashqi muhit ta'siri bolaning ichki dunyosiga singib o'tib, undan keyin o'ziga xos ravishda uning shaxs xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

3. Inson shunday faol mavjudotki va tashqi muhit shunday kuch qudratga egaki, u tashqi muhit ta'sirida o'zidagi ma'lum tug'ma xususiyatlarini o'zgartirish imkoniga ega.

Tashqi muhit mana shu uchta xususiyatni o'zida mujassamlashtirgan holda bola shaxsiga ta'sir etganligi uchun bir oilada bir ota-onaning tarbiyasini olgan, bir xil muhitda katta bo'lgan bolalar turlicha kamolot darajasiga, individual psixologik xususiyatlarga ega bo'laveradilar. Tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qila olish uchun esa ichki va tashqi omillarning yuqoridagi o'zaro munosabatlarni bilish muhim va jiddiy ahamiyatga egadir.

O'smirlik yoshi 12-15 yoshgacha bo'lgan davr bo'lib, bu davr bola kamolotining «qiyin», «murakkab», «o'tish» davri deb ataladi. O'smir endi yosh bola emas, lekin hali u rosmana kishi ham emas. U tevarak-atrofdagi hamma narsalar bilan qattiq qiziqadi. Unda zo'r faollik, jismoniy mehnatga ham zo'r ishtiyoq bor. Undagi bu aktivlikni yo'lga qo'yishni o'rganib olmoq kerak.

O'smirlik davri-bu davr ichida ham jismoniy, ham ruhiy o'zgarishlar ro'y beradi. Unda ayniqsa anatomo-fiziologik, biologik o'zgarishlar uning umumiy qiyofasini o'zgarishiga sabab bo'ladi. Naysimon suyaklar va umurtqa pog'onalari hisobiga qizlarning bo'ylari 18-20 sm, o'g'il bolalar esa 25-30 smga o'sadi. Yuz suyaklari tez shakllanadi. Ovoz paylari uzayadi. Natijada o'smirning ovozi buziladi, ovoz yo'g'on va past bo'lib qoladi. qizlarning ovozlari esa keskin o'zgarmaydi. Yurak o'sib borishining hamma sikllari tugaydi. Qon aylanishi yurak urishidan orqada qoladi va bu o'smirlarda ayniqsa qizlarda bosh og'rig'ining

paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Qo'zg'alish tormozlanishga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Bu bolani o'zini-o'zi idora qila olmasligiga sabab bo'ladi. O'smirlardagi bu xususiyatlar hisobga olinmasa bolada salbiy sifatlarning ortib borishi mumkin. Bu davrda ichki sekresiya bezlarida bog'lanish va o'zgarishlar paydo bo'ladi, natijada qizlar 15-16 yoshda, o'g'il bolalar 16 yoshda balog'atga etadi. Balog'atga etish o'smirlarda o'ziga xos psixologik holatlarni vujudga keltiradi. Ya'ni kishilarning ichki dunyosiga qiziqishi, ularning o'zaro munosabatlariga qiziqish, ularni his qilish hali anik tasavvur qilinmagan sevgiga ehtiyoj paydo qiladi.

O'smirlik davrida o'z-o'zini anglash va o'zini «katta bo'lib qolganini» his qilishi tez shakllanadi. Bu davrda bolaning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarda ifodalanuvchi harakter xislatlar shakllanadi. Bu xususiyatlar o'smir-ning o'z shaxsiy sifatlari, qobiliyat va imkoniyatlarini o'zi baholay olishi bilan bog'likdir.

O'smirlarga nisbatan ota - onalar, o'qituvchilar va o'rtoklarining munosabatida yuz bergan o'zgarishlar o'z-o'zini anglash xususiyatini paydo qiladi. U o'qishda, jamiyat ishlarida masuliyatni his qilish kerakligini, xulqiga katta e'tibor berishini, muvaffaqiyatlarnigina emas, balki kamchiliklarni ham xis qilish, ularni tuzatish unga o'z xususiyatini baholay olish imkonini beradi.

O'z-o'zini anglashdagi birinchi bosqich-o'qish va mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlarni anglash bo'lsa (qunt qilish, mehnatsevarlik, tirishqoqlik...) ikkinchi bosqich-boshqa kishilarga bo'lgan munosabatda ifodalanuvchi holatlarning anglash (qaysarlik, qo'pollik, do'stlikni anglash, vazminlik, hovliqmalik...) xususiyatidir. Uchinchi bosqich- o'z shaxsiy xususiyatlariga baho berish (o'zini-o'zi baholash bilan bog'liqdir). Bu uch xususiyatni anglash o'smir uchun qiyindir. Chunki u kishilardan kuzatuvchanlikni, o'z xulqini tahlil qilib, boshqalar hulqi bilan solishtirishni, faktlardan xulosalar chiqara olishni talab qiladi. Ammo o'smirlarda hali bunchalik aqliy faoliyat tarkib topmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular o'z kamchiliklarini qiyinchilik bilan bo'yinlariga oladilar. Uni yo'qotishda esa kattalar va o'qituvchilarning yordamisiz harakat qila olmaydilar.

«Kattalik hissi» deganda nimani tushunamiz? O'smir o'zida «kattalik» hissini his qiladi. U o'zini katta desa, hali u yosh bolaga o'xshaydi. Bola desa katta bo'lib qolgani uchun o'zini kichiklardan katta tutadi. Shuning uchun ham o'smirlar kattalarni o'zini boladek his qilib munosabatda bo'lishlarini yoqtirmaydilar. Bular bolani qattiq xayajonlantiradi, nafrat va tajovuzkorlikni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Tajovuzkorlik o'g'il bolalarda tegajog'likni paydo qilib, u urushqoqlikka aylanadi, qizlarda esa takabburlik va jizzakilikka aylanadi. Kattalar o'smirlardagi bunday xususiyatlarni koyisalar, u beadablikka o'tib ketadi. Shuning uchun ham o'smirlarning jinsiy balog'atga yetishini hisobga olib ular bilan munosabatlarida ehtiyotkor bo'lishlari talab qilinadi.

O'zaro shaxslararo muloqot o'smir shaxsini ham biologik, ham ijtimoiy tuzilishda muhim rol o'ynaydi. Biologik balog'atga yetish bilan bola yashayotgan ijtimoiy muhiti va ijtimoiy ta'lim-tarbiya uning hayotini muhim tomonini tashkil qiladi. Chunki o'smirning shakllanishi hamma vaqt ham qarama-qarshiliklar kurashsiz tinch o'tavermaydi. Ba'zi eski urf -odatlar diniy ekstremizm oqibatlari, ota-ona va tarbiyachilar tomonidan tarbiyaning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, yomon jamoa va guruhga qo'shilib qolishi o'smir tarbiyasiga salbiy ta'sir kiladi.

Bizning sharq xalq tarbiyasida oila tarbiyasiga xos qonuniyatlar xammaga aniq bo'lib, bolani haqiqiy kamol topgan inson qilib tarbiyalashga aloxida e'tibor beriladi. Endigina mustaqillikka erishgan xalqimiz mafkurasini puxtaroq tarbiyalashda, ilmiy va madaniy an'analar, urf-odatlar, milliy qadriyatlarni keng ko'lamda targ'ib va tashviq qilish nihoyatda muhimdir.

O'smir shaxsi tuzilishining shakllanishida quyidagilar muhimdir:

- a) o'smirlarning o'zaro munosabatlari;
- b) jamoa bilan munosabati;
- v) o'qish va mehnatga bo'lgan munosabatlari;
- g) maxalla va jamoatchilik muhim ahamiyatga egadir.

O'smirlik davri - insonni bolalikdan - yoshlikka o'tuvchi va o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi inson ontogenetik rivojlanishining eng harakterli davrlaridan

biridir. Bu davr psixologik pedagogik adabiyotlarda «o'tish davri», «og'ir davr», «inqiroz davri» kabi iboralar bilan ataladi. Bu davr taxminan bolalarning 5-8-sinflarda o'qish paytlariga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. Shuni hisobga olgan holda aytish mumkinki, o'smirlik davri ayrim bolalarda (aksariyat hollarda qiz bolalarda) 9-10 yoshlardan boshlanib, yana boshqalarida 16-17 yoshlargacha davom etishi mumkin. O'smirlik davrining boshlanishi qiz bolalarda o'g'il bolalarga nisbatan 1-2 yil oldin ro'y beradi. O'smirlik davri nima uchun «o'tish davri», «og'ir davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ataladi? Bu davrning «og'irligi», «keskinligi», «murakkabligi» nimalar bilan asoslanadi?

O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'lik. Bu davrda rivojlanishning boshqa jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik hamda ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil holatlar kuzatiladi. Bu davrga kelib bola endi «bola» emas va shu bilan birga hali «katta» ham emas. Uning o'z ko'ziga va atrofdagilarga nisbatan bo'lgan munosabatlari butunlay boshqacha harakter kashf etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo'nalganligi qaytadan shakllanadi, o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini baholashi, qadriyatlari tizimi o'zgaradi. Uning uchun o'z «men»i va shu «men»ning ahamiyati ortadi.²

Shuning uchun ham ilk bolalik yoshidagi, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni suyib, erkalab ularni quchib, boshini silab, yoqimli gaplar va muomala bilan ularga hissiy yaqinlik namoyon qilinsa, ular bundan quvonib, hursand bo'ladilar va erkalayotgan shaxsga nisbatan talpinadilar. Buni yosh bolalarning onasiga suykalishi, ularning pinjiga suqilishi, ularga erkalanishi hollarida kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, bolalar o'z tengdoshlari bilan

² Shoumarov G'.B. 1001 savolga psixologning 1001 javobi.– Toshkent: Mehnat. 2001, 48 bet.

bo'ladigan o'zaro munosabatlarida nizo-tortishuvlarga duch kelganida va ayniqsa, tengdoshlaridan «jabrlanganda», «yengila boshlaganidan», ota-onasidan va atrofidagi yaqinlaridan emotsional dalda, hissiy qo'llab-quvvatlash kutadi va bu borada ularga murojat qiladi. Agar o'z vaqtida shu hissiy daldani ola olsa, o'zini erkin, tetik, g'olib his qiladi va ular bilan quvonib yuradi. O'zining kichkinagina hayotida duch kelgan «muammolarini» hal qilishda kattalar yordamiga muhtojlikni his qiladi, ulardan muntazam foydalanishga intiladi.

O'smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, nuqtai nazar, pozitsiya, o'zligini anglash, baholash va hokazolar shakllanadigan davr hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bola kattalarning ko'rsatmalari yoki o'zining tasodifiy, ixtiyorsiz orzu-istaklari bilan harakat qilsa, o'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai nazari asosida tashkil qila boshlaydi.

O'smirlik davri xususiyatlarini tadqiq qilgan D.B.Elkonin va T.V.Dragunovning ta'kidlashicha, o'g'il va qizlarning bu yoshda o'rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo'ladi.³

O'smirlarning o'rtoqlik va do'stlik tuyg'ulari o'zaro munosabatlarini o'rgangan I.V.Straxov, ularning o'zaro munosabatlarini uchta shaklga: ulfatchilik, o'rtoqlik va do'stlikka bo'ladi. Har bir yuksak tuyg'uni psixologik jihatdan ta'riflab, ularning rivojlanishini bayon qiladi, yuksak, insoniy tuyg'ularning shakllanish sur'ati, barqarorligi o'g'il bolalar bilan qizlarda birmuncha farqlanishini ta'kidlaydi.

V.A.Krutetskiy va N.S.Lukinning fikricha, haqiqiy o'rtoqlik va chinakam do'stlik – mardonavor o'rtoqlik va talabchan do'stlikdir. Bunday o'rtoqlik va do'stlik amaliy yordamni va o'rtog'ining xatolarini to'g'ri, samimiy va ochiq tanqid qilishni taqozo etadi.

³ G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi: nazariy eksperimental taxlil. – Toshkent: Noshir. 2010, 189 bet.

1.2. O'smirlik davrida shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar.

O'smir shaxsining tarkib topishida axloq o'ziga xos, ong alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarning axloqiy tushunchalarni o'zlashtirishi va ularni turmushga tatbiq etishi muhim rol o'ynaydi. Umuminsoniy hislatlarni shakllantirish jarayoni, o'quvchidagi ishonch, aqida, nuqtai nazarning qarama-qarshiliklariga duch keladi. O'smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Chunki o'smirda muayyan narsalarga munosabat shakllangan bo'ladi. Ijtimoiy turmushni kuzatish, undagi inson uchun zarur ko'nikmalarni egallash kattalar xulq-atvorini taxlil qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada favqulodda holatlarga – katta yoshdagi odamlarning tutgan yo'li va uslubini baholash ko'nikmasi tarkib topa boshlaydi. O'smir xulq-atvorini baholashda (rag'batlantirish yoki jazolashda) kattalarning qat'iyatliligi, prinsipiialligi sinchkov o'quvchi tomonidan tahlil qilinadi va qo'llangan tadbirning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi yana bir marta tekshiriladi.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Farobiy, Abu Ali Ibn Sinolar ham inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berganlar. Farobiy inson kamolotida ta'lim – tarbiyaning muximligini ta'kidlab: «munosib inson» bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim – tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi. Tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr – qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir» – deydi.⁴

Abu Ali Ibn Sino axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy – pedagogik asosda yoritib berishga harakat qilgan. U ayniqsa, oila tarbiyasida ota – onaning o'rniga alohida to'xtalib: «bola tug'ilgach, avvalo ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak. Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi» – degan fikrni ilgari suradi.

Shunday ekan, inson kamolotiga ta'sir etadigan omillarning birortasini inkor etmagan holda ularni alohida – alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

⁴ Shoumarov G'.B, Haydarov I.O. Oila psixologiyasi. Akademik litsey va kasb-xunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma.– Toshkent: Sharq. 2008, 17-18 bet.

1. Shaxsni shakllantirish – uning o'sishi, qandaydir yangi xususiyat va fazilatlarga ega bo'lish jarayonidir. «Shakllantirish» tushunchasi «Tarbiyalash» tushunchasiga nisbatan kengroq bo'lib, u shaxs va jamoaning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadigan hamma narsani, shu jumladan, maqsadga muvofiq jarayonlar (o'qitish, tarbiyalash, ta'lim berish)ni ham, maqsadga nomuvofiq jarayonlar (shaxs va jamoani o'z ichki tabiati, atrofdagi kishilar, narsalar, tabiat hodisalari va h.k.larning ta'siri)ni ham o'z ichiga oladi.⁵

Shaxs ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan tarbiya omili, ijtimoiy, ishlab chiqarish, madaniy, ilmiy faoliyat va shaxsiy aloqalar omilidan iborat tashqi omillarning hamda biologik va psixologik omildan iborat ichki omillarning ta'siri natijasida shakllanadi. Shaxs shakllanishining asosi uning faoliyati bo'lib, bu faoliyat doimo o'zini bajaruvchiga nisbatan shakllantiruvchi, o'zini vujudga keltirgan yoki tashkil etgan shaxsga nisbatan shakllantiruvchi bo'ladi.

2. Bola shaxsining rivojlanishiga irsiyat, muhit va tarbiya kabi omillar ta'sir etadi. Bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta'siri deganda, ota – onalarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarni takrorlanishini tushunamiz. Har bir bola ota – onasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlarga (tananing tuzilishi, sochining, ko'zining, terisining rangi, bo'y – basti va boshqalar) ega bo'lgan holda dunyoga keladi. Bular jismoniy xususiyatlardir. Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari ham tug'ma o'tadi. Bu fiziologik xususiyat hisoblanadi.

Agar bola o'z layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib, rivojlanishi, aks holda yo'q bo'lib ketishi mumkin. Shuning uchun pedagogik layoqatning namoyon bo'lishi va qobiliyat sifatida rivojlanishi to'la to'kis hayot sharoitiga va tarbiyaga bog'liq.

3. Inson kamolotiga ta'sir etadigan omillardan biri tashqi muhitdir. Muhit deganda kishiga tabiiy ta'sir etadigan tashqi voqealar majmui tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti (mikromuhit) kiradi.

⁵ Mavlonova R, To'rayeva O, Xoliqberdiyev K. Pedagogika. Kasb-xunar kollejlari uchun darslik. -Toshkent: O'qituvchi. 2008, 21-bet.

Oilaning hayot tarzi, undagi bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadigan tarbiyaviy muhit uning kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola kamolotida ijtimoiy muhit ham muhimdir. Chunki ishlab chiqarish munosabatlari va ulani tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun – qoidalar kishiga alohida ta'sir qiladi. Ijtimoiy aloqa, ya'ni insonlararo o'zaro munosabat natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi, kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi.

4. Tarbiya muhit kabi inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiyaning xususiyati shundaki, u aniq maqsadni ko'zlab, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirish yo'lida tarbiyachi rahbarligida muntazam amalga oshiriladi.

Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uning natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi. Inson kamoloti irsiyat yo'li bilan orttirilgan va tabiiy layoqatlar bilan belgilanib qolmay, balki butun hayoti davomida uni qurshab olgan voqelik ta'sirida orttirilgan xususiyat va sifatlar bilan ham belgilanadi. Tarbiya odamning ko'zi, sochi, terisining rangiga uning badani tuzilishiga ta'sir eta olmaydi, lekin jismoniy taraqqiyotiga ta'sir etishi mumkin. Chunki maxsus tashkil etilgan jismoniy mashqlar orqali bolaning salomatligi mustahkamlanadi va chiniqtiriladi. Insonning tabiiy qobiliyati faqat tarbiya orqali uni ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilish orqali rivojlanishi mumkin.

Ma'lumki, bola layoqatini rivojlanish, uni qobiliyatga aylantirish va hayotga mos holda o'stirish uchun mehnatsevarlik va ishchanlik kerak. Mehnatsevarlik va muttasil o'tirib ishlash kabi fazilatlar faqat tarbiya natijasida orttiriladigan fazilatlardir. Garchand inson kamolotiga ta'sir etadigan omillar bir qarcha bo'lsa ham lekin maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachi rahbarligida amalga oshirildigan tarbiya jarayoni etakchi hisoblanadi. Chunki, birinchidan, tarbiya ta'sirida turli fazilatlar o'zlashtiriladi va bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalar, malakalar ham mahsus uyushtirilgan tarbiya orqali hosil qilinadi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirib, shaxsni kamolga etkazish mumkin. Masalan, ko'rlar, gunglar ham o'qitilib, sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish yoki bartaraf qilish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Shu tufayli, bu shaxsning kamolga yetishini tezlashtiruvchi rol o'ynaydi. Inson kamol topishida maktabning ahamiyati katta. Bolalar maktabga qadam qo'yar ekan, ular o'quv mehnati bilan band bo'ladilar. Bolalar maktabda fan asoslarini egallash bilan birga, ularda asta sekin ilmiy dunyoqarash shakllanadi.⁶

Shuningdek, o'qituvchi – tarbiyachilarning rahbarligida insonga hos bo'lgan yuksak fazilatlarni egallaydilar. Tarbiyaviy ishlarni reja asosida tashkil etish bolani tarbiyalashda oilaga har doim yordam ko'rsatadi. Tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchisining oilaviy sharoitidan xabardor bo'lishi, pedagogik maslahatlarga, yordamga muhtoj bo'lgan oilalarga yordam berishi muhim.

Pedagog uchun bola bo'sh vaqtini kim bilan o'tkazayotgani va nimalar bilan mashg'ul bo'layotgani ahamiyatsiz emas. Chunki, o'z holiga tashlab qo'yilgan bola ko'chaning salbiy ta'siriga berilib ketishi mumkin.

Hulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, inson faqat faoliyatda rivojlanadi, undan tashqarida rivojlanish yo'q. Bola juda yoshligidan boshlab kattalar yordamida tashqi muhit bilan turli xil aloqada bo'ladi. Maktab yoshida bu aloqalar o'qish va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat bilan bog'lanadi va bular rivojlanish uchun manba hisoblanadi.

Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat shaxsning aqliy va irodaviy rivojlanishiga ta'sir etadi. Demak, bola ulg'aygan sari uning faoliyati ham shakli va mazmuni bilan xamohang o'zgarib boraveradi. Masalan, bog'cha yoshida bolalarning asosiy faoliyat turi o'yin bo'lsa, maktab o'quvchisi uchun o'qib, mehnat qilish asosiy faoliyat bo'lib qoladi. Shuningdek, pedagogik jihatdan

⁶ Mavlonova R, To'rayeva O, Xoliqberdiyev K. Pedagogika. Kasb-xunar kollejlari uchun darslik. -Toshkent: O'qituvchi. 2008, 25-bet.

to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rahbarlik qilinmagan faoliyat esa bir yoqlama yoki salbiy ta'sir etishi mumkin.

Shunday qilib, inson taraqqiyotining ilmiy konsepsiyasi inson kamolotiga ta'sir etadigan omillarni taxlil etib, inson kamoloti va uning shaxsini shakllantirishni yagona va bir butun jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Bu jarayonda insonning faolligiga katta o'rin beriladi. U faolligi bilan o'z shaxsini shakllantira oladi. Tarbiyachi tomonidan qo'yiladigan maqsad aniq bo'lsa va bu maqsadga erishish uchun odam astoydil harakat qilsa, kutilgan natijaga erishiladi.

Ilmiy tadqiqotlar va hayot tajribalari ayrim axloqiy tushunchalarni noto'g'ri tushunib, shaxsning ba'zi fazilatlarini noto'g'ri baholab, mustaqillikka intiladigan, o'z irodasini namoyish qilishga harakat qiladigan o'smirlar o'zlarida salbiy sifatlarni o'stirishga urinishini ko'rsatdi. Hatto ular o'zlarida shakllangan ijobiy hislatlarni yo'qotishga ham harakat qiladilar. O'qituvchi va ota-onalarning asosiy vazifasi ularning noto'g'ri qarashlariga zarba berish va o'smirlarning adashishlariga yo'l qo'ymaslikdir.

O'smir o'g'il-qizlar shaxsining kamol topishida o'zini anglash muhim ahamiyatga ega. Chunki o'zini anglash jarayonida o'ziga baho berish mayli va istagi o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash, o'ziga bino qo'yish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bular esa o'smirning psixik dunyosiga, aqliy faoliyatiga, tevarak-atrofga munosabatining shakllanishiga ta'sir qiladi.

O'smirlarda o'zini anglashning rivojlanishi shaxsiy xulq-atvorini tushunishdan boshlanib, axloqiy fazilatini, harakterini, aqliy imkoniyat va qobiliyatini bilish bilan yakunlanadi.

O'smirda o'zini anglash rivojlanishi uchun sinf jamoasi va oila a'zolarining faoliyati muhim ahamiyatga ega. Uning xatti-harakati, o'z kuchiga, mayliga, yoshiga loyiq ijtimoiy munosabatlari, muayyan muhitda o'z o'rnini topishga intilishi o'zini anglashining takomillashuviga puxta zamin yaratadi. O'smirlarda o'zini anglash yangi bosqichga ko'tarilgach, ular o'ziga xos axloqiy namunani tanlaydilar. O'quvchi o'ziga namuna bo'lgan shaxsning xulq-atvori bilan o'zining

xatti-harakatini solishtiradi va o'zining ijobiy yoki salbiy jihatlarini anglab etadi. Natijada unda o'zini o'zi tarbiyalashga bog'liq yana bir muhim xislat vujudga keladi. O'smir o'zini o'zi tarbiyalashda kitob qahramonlaridan, kinofilm ishtirokchilaridan o'rnak olib, goho ularga taqlid qilib, butun iroda kuchi va karakter xislatlarini ishga solib, har xil xususiyatlarni egallashga intiladi va bu yo'lda uchraydigan to'siq hamda qiyinchiliklarni engadi.

O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat – voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, ko'ngil ochish jarayonida, xulq-atvorning tashqi shakllarida o'z ifodasini topadi. O'smir o'z kuchi va quvvati, chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasi kengayayotganini anglay boshlaydi. Bularning barchasi unda kattalik hissini rivojlantiradi. Unda g'ashga tegadigan rahbarlikdan, o'rinsiz homiylikdan, ortiqcha nazoratdan, zeriktiradigan g'amxo'rlikdan xoli bo'lish istagi vujudga keladi. Mazkur jarayon o'z navbatida kattalar bilan munosabat va muloqotda nohush kechinmalarni paydo qiladi. Sinf jamoasi va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirishgina kattalar bilan o'smirlar orasidagi «anglashilmovchilik g'ovi»ni yo'qotadi.⁷

O'smirlar bilan munosabatda ularning mustaqilligi, faolligi, tashabbuskorligi, o'zini boshqarishini hisobga olib, ortiqcha homiylik, g'amxo'rlik qilmaslik ijobiy samaralar beradi.

1.3. O'smirlar shakllanishida mahalla kengashi faoliyatining o'rni va ahamiyati.

Insonning butun umri o'tadigan fuqarolar o'zini - o'zi boshqaruvining muhim jamoatchilik organi – mahalla bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda yashovchi har bir oila, shaxs shu ahil jamoa ko'z o'ngida shakllanadi, har bir fuqaroning hayot tarzi, uning nimaga qodir yoki muhtojligini mahalladan ko'proq biladigan idora yo'q. Har bir kishi va uning oilasiga qo'shnilari va mahallasi

⁷ Karimova V.M. Oila psixologiyasi. darslik. –Toshkent: TDPU 2007. 19-bet

beradigan baho eng holis bahodir. Turmush bilan bog'liq har qanday tadbir mahallasiz o'tmaydi.

Shu o'rinda, «mahallang - ota-onang», «Bir bolaga etti qo'shni ota-ona» kabi xalq maqollar mahallaning qanchalik ahamiyatli, qadrli ekanligini ko'rsatib beradi.

Fuqarolik jamiyati ko'rinishida mahallaning muhim o'rin tutishini bilgani holda, Respublika rahbariyati mahallani o'zini - o'zi boshqarish faoliyatini kuchaytirib uning moddiy va ma'naviy asoslarini kengaytirish vazifasini qo'ydi.

Milliy qadriyatlarni o'rganish, asrash, muhtojlarni ijtimoiy muhofaza qilish, mahallalar rivojlanishiga har tomonlama ko'maklashish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish kabi hayotiy masalalar yurtboshimiz tashabbusi va farmoni bilan tashkil etilgan O'zbekiston «Mahalla» hayriya jamg'armasining asosiy faoliyati etib belgilandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'tish davri qiyinchiliklarini e'tiborga olib, kam daromadli oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda 16 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqalar tayinlash ishlari mahallalar orqali amalga oshirilishi Prezident farmoni va Respublika Vazirlar Mahkamasining qarori bilan belgilab qo'yildi. Bu, albatta, mahallalarga bo'lgan katta ishonchdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch» asarida: «Yangi jamiyat bunyodkori bo'lmish yangi insonni tarbiyalashda hozirgi paytda mahallalarimizda samarali faoliyat olib borayotgan, bu noyob tuzilmani tom maonoda o'zini o'zi boshqarish idoralariga aylantirishga katta hissa qo'shib kelayotgan mahalla oqsoqollari va faollari, fuqarolar yig'inlarining diniy maorifat va ma'naviy-axloqiy masalalar bo'yicha maslahatchilarining ijobiy ta'siri tobora ortib bormoqda. Aynan ana shu insonlarning odamlar ko'ngliga yo'l topib, ularning dardu - tashvishiga sherik bo'lib, o'z vaqtida berayotgan amaliy yordamlari, to'g'ri va o'rinli maslaxatlari tufayli oila va mahalla muhitida, butun diyorimizda tinchlik va osoyishtalik, o'zaro mehr-oqibat tuyg'ulari kuchayib borayotganini el-yurtimiz yuksak qadrlaydi. Ayniqsa, yosh yigit va qizlarimizning mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning jamiyatdan o'ziga munosib o'rin topishida bu fidoyi va mehribon,

jonkuyar odamlarning qanchalik muhim rol o'ynayotganini hurmat bilan e'tirof yetishimiz lozim», - deb yozadi.⁸

Oila va mahalla har tomonlama bir-birlari bilan bog'liq. Mahalla oilalardan tashkil topadi. Mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisidir.

Insonlar o'rtasida birlik va hamjihatlikning muhim vositasi – mahalladir. Farzand tarbiyasiga ham barcha mahalladagilar ma'suldirlar. Mahalla – muruvvat markazidir. Mahalla – ma'naviy - axloqiy qadriyatlar, an'analar maskani. Mahalla yoshlarni kasb-hunarga yo'llovchi makondir. Mahalla – oila tinch-totuvligini, jipsligini mustahkamlaydigan maskandir.

Mahallaning ustunligi shundaki, bu erda ko'p yillar davomida birga yashagan, bir-birini bilgan, sinagan, tanigan kishilar istiqomat qiladilar. Ular har bir oiladagi muhitni va har bir bola tarbiyasini, ota-onasini mahallada tutgan o'rni va obru – e'tiborini, har bir oilaning mavqe - imkoniyatlarini yaxshi biladilar. Buning uchun:

- oila, mahalla, maktab, jamoatchilik hamkorligi rejasini tuzish;

- tarbiyaviy ishlar o'tkazish dasturi va shu dastur asosida mahallada yashovchi har bir bola bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish;

- mahallada bolalar dam olishiga, qiziqarli ishlar bilan shug'ullanishiga imkoniyat yaratib berish;

- mahallada tarbiyaning ta'sirini oshirish;

- homiy tashkilotlar yordamida mahallalarga yordam berib, maxsus sport-sog'lomlashtirish maydoncha tashkil etishga ko'maklashish;

- maktab ma'muriyati bilan ota-onalar majlislarini uyushtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga oid masalalarni muhokamaga olib chiqish;

- sud, prokuratura, adliya va militsiya hodimlari bilan mahallada tarbiyasi og'ir, tarbiyaga muhtoj bo'lgan bolalar, ularning oilalari bilan ishlash tadbirlari, davra suhbatlari uyushtirish;

- mahallada huquqiy tarbiyani kuchaytirish, Qonunlarga ongli yondoshish hislatlarini singdirib borish, sud, prokuratura xodimlari bilan uchrashuvlar, ochiq sudlar o'tkazishni uyushtirish;

⁸ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat. 2008, - 61 bet.

-mahallalarda qizlar hayosi, ibosi, turmushga, hayotga tayyorligi haqida bahs, munozaralar o'tkazish;

-yoshlarda milliy urf-odatlar, azaliy udumlar, xalq og'zaki ijodi namunalarini tashkil etishga, tarixiy an'analarni o'rganish, maktab, jamoatchilik, mahalla ahli hamkorligida tadbirlar o'tkazish;

- yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy masalalar bo'yicha maslahatchilarini keng jalb etish;

Qayd qilib o'tilgan ishlar davlatimiz tomonidan voyaga etmagan yoshlar o'rtasida qonunbuzarlikning oldini olish tadbirlariga oid hujjatlarga suyangan holda bajarilishi lozim.

Mahallaning demokratiyalashuv, ijtimoiylashuv, insoniylashuv va mukammallashuv jarayonlariga faol ta'sir qila olishini Prezident I.A.Karimov quyidagicha ta'kidlab o'tgan: «Yoki masalan mahalla-bizning jamiyat hayotida insoniy tarbiya va kelishuvning o'zgaras manbasi. Tarixning guvohlik berishicha, bizning davlatda daryolar bo'yida paydo bo'lgan. Tabiat kataklizmalari, tashqi hayvonlarni birgalikda engish, qiyin kunlarda qo'llab-quvvatlash bizning ajdodlarimizni jamoa bo'lib yashashga o'rgatgan.

Mehribonlik, raxmdillik kabi qadrli insoniy hislatlar aynan mahallada shakllanadi. Bu ma'noda mahallani o'z-o'zini boshqarish maktabi, kerak bo'lsa demokratiya maktabi desa bo'ladi.

Ijtimoiylashuv nafaqat shaxsning jamiyatda qulayliklarga ega bo'lishini ko'zda tutadi, balki shaxsning muayyan axloqiy va etnik qoidalarni egallashini ham ko'zda tutadi. Shu borada mahalla ijtimoiylashuvining unikal mexanizmi hisoblanadi. Chunki unda:

-har bir inson amal qilishi kerak bo'lgan muayyan axloqiy qonunlar ishlab turadi;

-muomala bir qator axloqiy tamoyillarga asoslanadi;

-hokimiyatga ishonch va hizmat, shaxsiy namuna kuchi kattalarga hurmat, bolalar haqida g'amxo'rlik;

-ahloq va jamoatchilikning tarbiyasi amaliy faoliyatga kiritish orqali amalga oshiriladi;

-ommaviy ong qadriyatlari mahalladan oila va shaxsga uzaytiriladi;

-alohida shaxs hayotining asosiy bosqichlari jamoaning barcha a'zolari tomonidan kuzatuvda bo'ladi.

Alohida tarixiy davrlarda an'anaviy hayotiy muammolarning buzilishiga urinishlar amalga oshirilishiga qaramay, mahalla bunga qarshilik ko'rsatdi va an'ana, odatlarning saqlanib qolishiga yordam beradi.

Mahallaning ijtimoiy o'rni shunda namoyon bo'ladiki, u doimo jiddiy ijtimoiy o'zgarishlarga o'z munosabatini bildirgan va oliy insoniy va axloqiy tamoyillarga tayanadi. Masalan, XX asrning 20-30 yillarda mahalla ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishga qo'shilishi, savodsizlikni bartaraf etish, aholining madaniy dunyoqarashini kengaytirish qo'llab-quvvatlangan.

Hammaga mahalla aholisining Rossiya, Ukraina, Belorusiyadan evakuatsiya qilinganlarni qabul qilganliklari dalili yaxshi ma'lumdir. Mahalliy aholi vakillari ko'chib kelganlarga o'z uylarining bir qismini berishgan, moddiy yordam ko'rsatishgan. Mahalla jamoalari nihoyatda yuqori axloqiy va ijtimoiy salohiyatga ega, ular odamlarga yaxshi niyatlilik, o'zaro hurmat, o'zaro tushunish kabi hislatlarni tarbiyalashadi.

Mahallaning an'analarni saqlab qolish va ularni yoshlarga etkazish jamiyatni demokratiyalashning ilk davrlarida milliy qadriyatlarning tiklanishiga katta yordam bergan. Yangi sharoitlarda mahalla o'z-o'zini boshqarish organi sifatida yangi mazmun va ahamiyatga ega bo'ldi. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov⁹ tomonidan ham ta'kidlangan.

Mahalla maktablarining yuqori sinf o'quvchilarning ijtimoiy va ma'naviy qiyofalari ham ancha o'zgarib qoldi. Ularning aksariyati muassasa, maktablarda tashkiliy ish tajribasiga egalar. Oqsoqollarning aksariyat qismi savodxon, ularning ba'zilar ilmiy darajaga egadirlar. Mahalla insonlarning axloqiy birlashuvi markazi

⁹ «Mahalla» xayriya jamg'armasini tuzish to'g'risidagi 1992- yil 12 sentyabrdagi hamda «Mahalla» xayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risidagi 1992- yil 8-oktyabrdagi farmonlari, 1993-yil 2 sentyabrdagi «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni.

bo'lishni davom ettirmoqda. Bu avvalambor, mahalla qo'mitalari faoliyatlarining asosiy yo'nalishlaridan biri ijtimoiy mehnatlarni, shu jumladan obodonlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilishda namoyon bo'ladi. Bunaqa ishlarning asosiy turlari-ariqlarni tozalash, daraxtlarni kesish, axlatni chiqarish bo'yicha hasharlardir. Bunaqa tadbirlar asosan Navro'z, Ramazon, Qurbon hayitlari, Mustaqillik kunlari oldidan o'tkaziladi. Hashar yo'li bilan uylar, klublar, oshxona, masjidlar bunyod etilmoqda.

Eng muhim an'analardan biri mehr-muruvvat bo'lib, u quyidagi qiyofalarda namoyon bo'ladi:

-jamoaning g'amxo'rligi, qo'shnilarning kasal, keksa va kam ta'minlanganlariga yordam ko'rsatishadi;

-o'ziga to'q kishilarning kam ta'minlangan qarindoshlariga va qo'shnilarga moddiy yordam berishlari;

-oqsoqol va mahalla qo'mitasi tomonidan boquvchisini yo'qotgan va qariyalarga yordam ko'rsatishi va boshqalar.

Jamoadagi yordam ko'rsatish an'anasi hozir yangi shakllarga ega bo'ldi va hokimiyatlar, mahalla qo'mitalarning asosiy vazifasiga aylandi. Respublika Prezidentining (1994 - yil 23 - avgust) «Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyasini kuchaytirish chora-tadbirlari» haqidagi farmoni bilan aholini ijtimoiy himoya qilishning yangi turi joriy qilindi: kam ta'minlangan oilalarga har oy ko'rsatiladigan yordam. Hozirgi kunda mahalla jamiyatida etnomadaniy qadriyatlarni tiklash jarayonida muhim rol o'ynamoqda. Nikoh, janoza, aqiqa to'yi, sunnat to'yi, muchal to'yi kabi marosimlar ham o'tkazilmoqda.

Mahalla azaldan nafaqat o'sib kelayotgan avlodning tarbiyachisi vazifasini bajargan, balki ijtimoiy fikrni shakllantirgan ham. Qo'shnilar o'rtasidagi barcha nizoli holatlar, shuningdek esa oilaviy janjallar mahalla qo'mitalari faollari tomonidan muhokama qilinadi. Bular orasida ko'pincha qaynona-kelin, yosh kelin-kuyovlar orasida janjallar ko'p uchraydi. Bunaqa holatlarda xotin-qizlar qo'mitasi suhbat o'tkazadi. Agar ikki tomonni yarashtirib bo'lmasa, bu holat bilan mahalla qo'mitasi shug'ullanadi. Odatda o'sha joyning o'zida muammo hal qilinadi.

Shuning uchun ajralishlar soni ko'p emas. So'ngi paytlarda uy xo'jaligi bilan band ayollar, yosh oilalar bilan ishlash faollashdi, ularni an'anaviy kasb-hunarlariga o'rgatish ishlari olib borilmoqda. Mahalla ishsizlarning ishga joylashishlariga ham ko'maklashmoqda. Harbiy qo'mitalar askarlikka olishga tanlov bo'lganda mahalla faolligiga tayanishadi.

1999 - yil 14 - aprelda O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari haqida»gi qonuni yangi taxrirda qabul qilindi. Unda yana bir marta fuqarolarning o'z-o'zini boshqarishi asosida tarixiy taraqqiy xususiyatlari, milliy va ma'naviy qadriyatlar, mahalliy odat va an'analar etishi ta'kidlandi. Qonunda mahallaning vazifalari belgilab qo'yilgan. Yuqorida sanab o'tilgan funksiyalardan tashqari mahallaga yangi vazifalar-tijorat va maishiy xizmat ko'rsatishni, hududning tozalik holatini, aholidan soliqlarning o'z vaqtida topshirilishini nazorat qilish ham yuklatildi. Davlat mahallaga avval mahalliy kengashlar bajargan vazifalarni yuklamoqda. Bu esa mahalla qo'mitalari davlat to'zilmalariga aylanayotganligidan guvohlik beradi.

Mahallaning ijtimoiy hayotida so'nggi o'n yillarda katta o'zgarishlarni boshdan kechirgan qo'shnichilik munosabatlari muhim o'rin tutmoqda. Oilaviy muhitning individuallashuv jarayoni ketmoqda. Shu bilan birga yaqin qo'shnichilik munosabatlari o'zbek oilasining qadriyatlaridan biri bo'lib qolaveradi. Bu avvalambor xo'jalik yordamida, bolalar tarbiyasida, qiyin vaziyatlarda yordam ko'rsatishda namoyon bo'lmoqda. Shuning asosida ma'naviy yaqinlik paydo bo'ladi, ya'ni kundalik axborot almashinuvi, mahalladagi voqealar muhokamasi bo'lib o'tadi. Shu tarzda mahalladagi eng kichik guruhlardan biri-qo'shnichilik guruhi paydo bo'ladi. Mahalla hozirda zamonaviy jamiyat hayotining ijtimoiy tizimida o'z O'zbekiston siyosati bu an'anaviy institutning yanada faol faoliyat yuritishiga yangi zaminlar yaratdi.

Bob yuzasidan xulosalar:

Tadqiqot ishining I bobi: «O'smirlik davrida shaxs shakllanishida mahalla kengashi faoliyatining ahamiyati» deb nomlanib, mazkur birinchi bobning birinchi bandi: «Yosh davrlarida o'smirlikning o'ziga xos xususiyatlari»ga bag'ishlangan.

O'smirlik yoshi 12-15 yoshgacha bo'lgan davr bo'lib, bu davr bola kamolotining «qiyin», «murakkab», «o'tish» davri deb ataladi. O'smir endi yosh bola emas, lekin xali u rosmana kishi ham emas. U tevarak-atrofdagi hamma narsalar bilan qattiq qiziqadi. Unda zo'r faollik, jismoniy mehnatga ham zo'r ishtiyoqi bor. Undagi bu aktivlikni yo'lga qo'yishni o'rganib olmoq kerak.

O'smirlik davri xususiyatlarini tadqiq qilgan D.B.Elkonin va T.V.Dragunovning ta'kidlashicha, o'g'il va qizlarning bu yoshda o'rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo'ladi.

Mazkur birinchi bobning ikkinchi bandida: «O'smirlik davrida shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar» deb nomlanib, unda shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar berilgan.

Ma'lumki, uzoq va boy tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan merosiga ega. Bu meros bugungi avlodni insonparvarlik, mehr-muhabbat, oqibat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mardlik, yuksak axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, inson taraqqiyotining ilmiy konsepsiyasi inson kamolotiga ta'sir etadigan omillarni taxlil etib, inson kamoloti va uning shaxsini shakllantirishni yagona va bir butun jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Bu jarayonda insonning faolligiga katta o'rin beriladi. U faolligi bilan o'z shaxsini shakllantira oladi. Tarbiyachi tomonidan qo'yiladigan maqsad aniq bo'lsa va bu maqsadga erishish uchun odam astoydil harakat qilsa, kutilgan natijaga erishiladi.

Mazkur bobning uchinchi bandi: «O'smirlar shakllanishida mahalla kengashi faoliyatining o'rni va ahamiyati» da Xalq ta'limi vazirligining 2004 - yil 26 - fevraldagi 26-sonli hay'at majlisi qarori bilan qabul qilingan «Oila, mahalla, maktab» Konsepsiyasi haqida to'xtalib, mahallalarda bolalar dam olishiga, qiziqarli ishlar bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratish, mahallalarda tarbiyaning ta'sirchanligi, homiy tashkilotlar yordamida mahallalarda sport-sog'lomlashtirish maydonchalari tashkil etish, mahallalarda qizlar hayosi, ibosi,

turmushga, hayotga tayyorlash haqida baxs, munozaralar o'tkazish, yoshlarda milliy urf-odatlar, azaliy udumlar, tarixiy an'analarni o'rganish, maktab, jamoatchilik, mahalla ahli hamkorlikda tadbirlar o'tkazishni, joylardagi hokimiyatlar, «Mahalla», «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda yordam berishni maqsad qilib qo'yganligini ta'kidlangan.

II BOB. O'SMIRLIK DAVRIDA OILA, MAKTAB VA MAHALLA HAMKORLIGINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI.

2.1. O'smirlar o'rtasidagi ziddiyatlarni oldini olishda oilaning o'rni.

Oilada farzand tug'ilar ekan, eng avvalo, onani enaga sifatida shakllanishiga, onaga xos mehr manbalarining ochilishiga, ona shaxsida tarbiyachilik malakalarining shakllanishiga ta'sir etadi. Oilada bir nechta farzand bo'lgach, ularning orasida nizoli vaziyatlar vujudga kelishi mumkin, ana shunda onada bolalar orasida adolatli hakam bo'lish malakalarining shakllanishiga, har bir bolaning minglab savollarga javob berish majbur bo'lganida esa bilim va ma'lumotlar manbai sifatida shakllanishiga, oilada qizlarni jarayonida ayol shaxsi qanday bo'lishi kerakligi, oilada o'g'il bola bo'lganda esa oilada ayol kishi, ona qanday bo'lishi kerakligini, o'g'il uchun ona obrazi, ayol obrazi shakllanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Shunday ekan, farzand onani ona shaxsi sifatida va otada otaga xos bo'lgan hislatlarni shakllantirishga, otani oila byudjetini ta'minlovchi homiy sifatida, farzandlar yuzaga kelar ekan, farzand bilan bog'lik bo'lgan an'anaviy tadbirlarimiz, to'y-marakalarimizning tashkilotchisi va homiysi sifatida va shu tadbirlarni o'tkazish mobaynida undagi ko'nikma va malakalarning shakllanishi va nihoyat, farzandlari uchun oilada erkak obrazi, erkak shaxsi qanday kerakligining namunasi sifatida ota katta rol o'ynaydi. Umuman, oilada farzandlarning mavjudligi, farzandlarning ota-ona bilan muloqoti, ota shaxsi, ona shaxsi sifatida to'laqonli shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, uzoq va boy tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan merosiga ega. Bu meros bugungi avlodni insonparvarlik, mehr-muhabbat, oqibat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mardlik, yuksak axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Oila – tarbiya maskani. Dunyoga kelgan farzand ota-onadan axloq-odob qoidalarini, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi qadriyatlarni egallaydi.

Shu jumladan, oila boshlang'ich tarbiyaviy jamoa sifatida keng doiradagi

vositalarga ega. Bu vositalar ota-ona muxabbati, do'stligi, talablari, o'brusining o'ziga xos psixologik mexanizmlarga asoslangan bo'lib, ularni favqulotda hollardagina boshqa tarbiyalovchi tashkilotlar tomonidan o'zlashtirib olishi mumkin. Oilada bolaning uning a'zolari bilan o'zaro muloqatda to'plagan shaxsiy tajribasiga asoslangan xulq-atvor shakllantriladi.¹⁰

Oilada bo'sh vaqtni faol tashkil etish, madaniyat, sanoat maskanlariga, tarixiy obidalarga, qadamjolarga sayohatlar uyushtirish – oila barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Inson ma'naviyati dastlab oila sharoitida shakllanadi va jamiyat ma'naviyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Oilada farzandning ota-ona oldidagi burchi nihoyatda muhimdir.

Noqobil farzand ota-onaning qaddini bukadi, el-yurt oldida ularning boshini g'am qiladi.

Yosh avlod qalbida vatanpavarlik tuyg'usini shakllantirish har bir ota-onaning, tarbiyachi-murabbiylarning, jamoatchilikning Vatan oldidagi burchlaridir.

Tarbiya – ko'p qirrali, uzoq davom etadigan jarayondir. Bolani o'rab olgan muhitning hammasi – odamlar, narsalar, hodisalar uning ongida, xulq-atvorida ma'lum iz qoldiradi, uni o'zgartiradi va o'stiradi.

Har bir ota-ona tarbiyaning o'ziga xos nazariy hamda amaliy qonun-qoidalarini o'zlashtirib, ularga amal qilishi lozim. Negaki, oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik, murakkab masala bo'lib, ota-onadan pedagogik bilim, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi.

Ota-ona, avlod-ajdodlarimiz tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, o'g'il-qizlarni yoshligidan mehnatsevar, har bir topshiriqni katta yoki kichikligidan qat'iy nazar o'z vaqtida, aniq bajaradigan, umrining har bir daqiqasini qadrlaydigan qilib tarbiyalash lozim. U yoki bu oiladagi tarbiyaning samaradorligi, albatta, ota-onaning qanchalik bilimli, madaniyatli bo'lishi, bola tarbiyasiga masuliyat bilan qarashlari, farzandlari kelajagini chuqur his etishlari, tajribada sinalgan milliy urfodat va ananalardan unumli foydalanishlariga bog'liq. Tarbiyada talabchanlik, ota-

¹⁰ Shodiyev N. Pedagogika fanidan muammoli vaziyatlar va o'quv topshiriqlari.-Toshkent: SamDU, 2004. 85-bet.

ona va katta yoshdagi kishilarning o'zaro ahilliklari, kichiklarga g'amxo'rlik, osuda turmush va halol mehnat faoliyatlari oilaviy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Bundan tashqari har bir oilada farzand tarbiyasida aniq bir maqsad bo'lishi kerak. Eng muhimi farzandlarimizni nafaqat bo'lajak ota-ona yoki aka-uka, opa-singil sifatida, balki jamiyatning haqiqiy fuqarosi, kelajagiga ishonuvchi, unga sadoqat bilan xizmat qiluvchi inson, vatanparvar, posbon sifatida ham tarbiyalashga e'tibor berishimiz lozim.

Oilaning ijtimoiy moslashuv bo'yicha tadqiqot o'tkazish uchun ijtimoiy pedagogika uning xususiyatlarini bilishi, ularga baho berish lozim. A.Q.Minavarovning¹¹ fikricha oilaning tarbiyaviy funksiyasining darajasi uch yo'nalishda bo'luvchi uning to'zilmasiga bog'liq.

Bu yo'nalishlar demografik-ko'p bolalik, kambolalik, ikki yoki uch avlodning birgalikda yashashi, ota-onalarning ikkalasini ham bo'lishi, oila a'zolarining ta'lim olganliklari darajasi, bolalarni tarbiyalashda vazifalarni taqsimlash, oila tarbiyasining o'ziga xosligi, shuningdek oilaning milliy xususiyatlari ham inobatga olinadi.

Oila tipologiyasi ijtimoiy moslashuv darajasi bo'yicha farq qiluvchi to'rtta asosiy kategoriya asosida shakllanadi:

Yaxshi oilalar - o'z vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishadi, o'z bolasi ehtiyojlariga tez ko'nikishadi. Muammo paydo bo'lib qolsa ularga bir karra yordam ko'rsatish kifoya.

Tavakkalchi oilalar - adaptativ qobiliyatlar pastroq. Ular bola tarbiyasini qiyinchilik bilan eplashadi va ijtimoiy pedagog yordami va nazoratiga ehtiyoj sezadilar.

Muvaffaqiyatsiz oilalar - hayotiy faoliyatning biror-bir sohasida past ijtimoiy maqomga ega bo'lib, ular o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydilar, ularning adaptativ imkoniyatlari past, bola tarbiyasi jarayoni katta qiyinchiliklar bilan sekin kechadi. Bu oila turi uchun ijtimoiy pedagogning faol yordami zarur. Muammolari harakteridan kelib chiqib pedagog ularga ta'lim,

¹¹ Minavarov A. K. Oilaviy tarbiya effektivligini pedagogik shart-sharoitlari. -Toshkent: Fan, 1989. 17-bet.

psixologik yordamlar ko'rsatadi.

G'ayri ijtimoiy oilalar - bu oilalar tubdan isloh qilinishi lozim. Bu oilalarda ota-onalar g'ayri axloqiy va g'ayri huquqiy hayot tarzini olib borishadi, yashash sharoitlari oddiy tozalik-gigienik talablarga javob bermaydi. Bolalar tarbiyasi bilan albatta hech kim shug'ullanmaydi, bolalar nazoratsiz qolib ketishadi, rivojlanishda ortda qolishadi. Ijtimoiy pedagogni bu oilalar bilan ishlaganda huquqni muhofaza qilish organlari bilan yaqin hamkorlik asosida ish yuritishi darkor.

Ijtimoiy pedagogning oila bilan ish yuritishi:

- ijtimoiy pedagog faoliyati oilani o'rganishdan boshlanadi. Oiladagi munosabatlarni o'rganish pedagogga oilada bolaning holatini tasavvur qilish imkonini beradi. Oilani o'rgangandan keyin ijtimoiy pedagog oldida oilada yangi munosabatlarni o'rnatish vazifasi turadi. Bu muammoni oilani turli klublar, maslahatlar, maishiy birlashmalar, bog', tamorqadagi ishga jalb qilish yo'li bilan hal qilsa bo'ladi.

Bolaning oilada tutgan o'rni haqida tasavvurga ega bo'lgandan so'ng ijtimoiy pedagog oila bilan birgalikda u uchun reabilitatsion dastur variantlarini ishlab chiqadi.

Ijtimoiy pedagog tomonidan **«oila xaritasi»**ni tuzish amaliyoti ham mavjud. Unda oilaning har bir a'zosining tavsifi, tug'ilgan sanasi beriladi. Shuningdek, oila maqomi, yashash sharoitlari, qo'shnichilik, oilaning diniy va milliy mansubligi aniqlanadi.

«Xarita»ning ilovasida oilada bola tarbiyasini o'rganish deb nomlangan qismi ham mavjud, unda ota-onalar bola bilan qancha vaqt va qanday o'tkazishadi, ularning umumiy ishlari nimalardan iboratligi, vaqtni ota-onalar o'z farzandlari haqida nimalar bilishlari haqidagi ma'lumotlar o'z aksini topadi. Masalan, bola nimaga qiziqadi, nimalarni o'qiydi, kimlar bilan do'stlashgan, uning sog'ligi qanaqa va shu kabilar. Shuningdek, bu jarayonda bolalarning ham ota-onalari haqida nima bilishlarini aniqlash juda muhimdir.

Bundan tashqari, ijtimoiy pedagog oiladagi barcha munosabatlar-kattalarning o'zaro munosabati, kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni inobatga olishi

muhim hisoblanadi. Oilada hamkorlik mavjudmi yoki barcha munosabatlar kattalarning buyrug'i asosida quriladimi? Agar bola birinchi sinfga qatnay boshlasa, ijtimoiy pedagog bolaning holatini, kim bilan sizlashishi, unga nima yoqishi-yoqmasligini aniqlashi lozim.

Ota – onaning farzand oldidagi burchi nihoyatda katta va ma'sulyatlidir. Farzandlarning kelajakda qanday ma'naviyat egasi bo'lishi ko'p jixatdan ota – ona, u bergan tarbiyaga bog'liq. Har bir ota- ona farzandi oldida o'z otalik va onalik burchini to'liq xis etishi va unga javobgarligini ma'nan anglab yetishi kerak.

Farzand tarbiyasi quydagi bosqichlarda amalga oshirilishini har bir ota – ona bilishi kerak: birinchisi – nasil tarbiyasi, ya'ni bola tarbiyasi- bola tug'ilmasida 3 – 4 yil oldin boshlanishi kerak. Ya'ni, bo'lg'usi ota – onaning sog'lig'i farzand tarbiyasini tarbiyalashga masulligini xisobga olish lozim bo'ladi. Bu bola farzand ko'rishni istagan ota - onaning bo'lajak farzandlari taqdiriga masuliyat bilan qarab o'zlarini salomatliklarini yaxshilashlarini nazarda tutadi. Ikkinchi bosqich – xomiladorlik davrida parvarish – bu masala o'ta muxim ahamiyatli bo'lib, bizda bu eng qoloq soha bo'lib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda xomiladorlik davri tug'ilajak inson taqdirining 60% ni belgilashi ko'zda tutiladi. Bu davrda chora – tadbirlar aksariyat ota – onalar tomonidan amalga oshiriladi. Uchinchi davr bola tug'ilganidan to 6-7 yoshgacha bo'lgan davr – shu davrga kelib bola ma'naviyatning asosiy kurtaklari shakillanib boradi. So'ng anashu ma'naviy kurtaklarni parvarishlash va yanada rivojlantirish davri boshlanadi. Ma'naviy barkamollik , balki beshikdagi allaning mazmunidan bolani kiyintirish –u uni xalol luqma bilan boqishdan boshlanishi mumkin. Xazrati Bohoudin Naqishbandiy aytganlaridek, insondagi yaxshi fe'llar, amallar halol luqmadandir. Xulosa shuki, bola tarbiyasini dono xalqimiz aytganidek, u hali tug'ilmasidan ota, ona va butun oila a'zolari hamjihatligida boshlalshimiz lozim bo'ladi.

Inson bolasi o'zi tug'ilib o'sgan oilasida ilk bor ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. U bilan dastlabki ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi odamlar: uni ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi va boshqa oila a'zolari. Ularning kelajakda shaxs sifatida shakllanib yetuk inson bo'lib yetishuvida, hayotda o'z o'rnini topib

ketishida uning qanday oilada tarbiyalanganligi, oilada qanday iqlim hukm surganligi, o'z ota – onasi bilan o'zaro munosabatlarining qanday tarzda kechganligi muhim ahamiyatga ega. Oiladagi shaxslararo munosabatlarga, ota – ona va farzandlar munosabatlariga, bolalarning o'zaro munosabatlariga alohida e'tibor berib kelingan. Bu mavzuning uzoq o'tmishga ega ekanligini biz deyarli barcha millatlar xalq og'zaki ijodiyoti na'munalari misolida ko'rishimiz mumkin.

Masalan, xalqimiz ming yillik tarixga ega bo'lgan buyuk dostoni Alpomish, Go'ro'g'li kabilarda mazkur munosabatlar tizimi yorqin tasvirlangan. Ular ming yil davomida xalq og'zaki ijodiyoti na'munalari tarzida avloddan – avlodga o'tib, kelajak avlodlar ma'naviy dunyosi, ruhiy olami, milliy qadriyatlarini shakillanishida munosib o'rin egallab kelmoqda. Ota-onalar bilan o'zaro harakat tajribasi go'daklarning bir – biri bilan ijtimoiy bog'lanishlari rivojlanishida ijobiy ko'rinadi. Birinchi yarim yillikda yuzaga keladigan aka – ukalarga qiziqish ortadi: ulardan ajiralmaslikka, o'yin, o'zaro harakatiga birga qatnashishga, ularning hissiy holati va g'ayratini xis qila olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, ota-ona bilan muomala tizimida diqqat va qiziqish kabi ularga hissiy munosabatning o'zaro fikr almashinuv miqdori, muomaladagi epchillik ko'rsatkichlari ortadi. Ota-onalar bilan bog'lanish bolalarda botirlik, o'ziga ishonch, serharakatlilik kabi xususiyatlarni vujudga keltiradi.

Buyuk alloma Beruniy shuni ta'kidlaydi:- bola tabiat in'om etgan chiroyga ega bo'lishi va sog'lom baqquvat tug'ilishi uchun ona qornidayoq zamin tayyorlanishi lozimligi haqida to'xtalib o'tadi. Bola qiyofasi, ya'ni uning tashqi tuzulishi go'zal bo'lishi uchun onani ezozlab, ranjitmay parvarish qilish zarurligi, bolaning ichki ma'naviy go'zalligiga esa u tug'ilganidan so'ng tarbiya orqali erishilinish hamda unda hulq odobini tarbiyalash uchun zarur muhit va sharoit yaratish lozmi. Bolalarning yoqtirgan narsasini topishga va sevmagan narsasini ko'zdan uzoqlashtirishga tayyor bo'lib turish kerak. Bu ishning ikki tomonlama foydasini, bir tomondan bolaning ruhiyatiga foyda qilsa, bora – bora unga xushhulqlik odat bo'lib qolishini ko'rsatadi. Aks holda yomon hulq turli mijoz buzulishining keltirib chiqarishini aytib o'tadi. Masalan, g'azab kuchli qizdiradi,

qayg'u kuchli ozdiradi, nafsoniy quvvatni bo'shashtirib mijozni balg'amlikka moyil qiladi.

Oilada farzand o'stirish, uning tarbiyasi, odob va axloqi, ota-ona uchun eng buyuk qadriyatdir. O'z navbatida ota-onaning farzand tarbiyasiga ta'siri ularning individual shaxsiy qadriyatga va shaxsiy prinsipiga bo'lgan munosabati asosida amalga oshiriladi. Xalqimizning «qush inida ko'rganini qiladi», degan hikmatli maqoli ham shaxsiy va oilaviy qadriyatni farzand kamoloti uchun naqadar zarur ekanligini ifodalaydi va u bejiz aytilmagan.¹²

Haqiqatdan ham oilaviy munosabatlar ota-ona va farzandlar, bolalarning oiladaga o'zaro munosabatlari – bu kishilik munosabatlarning eng muhim, nafaqat shaxsning shakillanishi, oilalarning mustahkamligi, balki jamiyat taraqqiyoti, istiqboli uchun hal qiluvchi ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

Bolaning ruhiy olami – sirli bir dunyo. Bu olamga kirishimiz, bolaning hayajonlari, iztiroblari, quvonchlari, oliy-xayollari, his-tuyg'ularini o'zimizda sinab ko'rib munosabatda bo'lishimiz bolalarni tushunishda bosh mezon bo'lib xizmat qiladi. Ota-ona obro'si tarbiyada hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Farzandlarning ota-onaga so'zsiz itoat qilishi ko'p jihatdan ota yoki onaning oiladagi obro'siga ham bog'liq. Ba'zi ota-onalar, bolam menga hecham quloq solmaydi, tarbiyasi buzilgan, deb shikoyat qilishadi. Ochiq aytish kerakki, bolalarni gapga quloq solmasligi ota-onalarning obro'si yo'qligini, yana ham to'g'rirog'i obro'larini yo'qotib qo'yganliklarini ko'rsatuvchi belgidir.

Ma'lumki, katta-kichik oilada bola ota-onadan tashqari, uyidagi boshqa oila a'zolarining ta'sirida ham tarbiyalanadi. Kattalar o'z tashvishlari bilan bo'lib ketib, ba'zi noo'rin xatti-harakatlari bilan salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatayotganlarini sezmay qolishadi. Chunonchi, bola doimo kattalarning baqir-chaqirlarini eshitaversa, darg'azab yuzlarni ko'raversa, bu hol asablariga ta'sir etib, u ham yomon fe'l-atvorli, jahldor bo'lib o'sadi. Agar oila a'zolari o'zaro xushmuomalada bo'lsalar, chehralaridan doim bir-birlariga mehribonlik va ahillik balqib tursa, bola ulardan zavq olib xushchaqchaq, odamoxun bo'lib o'sadi.

¹² Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 29 -bet.

O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy faravonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-essonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir¹³.

2.2. O'smirlardagi agressiv hatti-xarakatlarni bartaraf etishda maktabdagi psixologik muhitning o'рни.

Maktab rang-barang tarbiya vositalarini qo'llaydi, ularning eng asosiysi shaxsni muhitdagi aloqalarini va munosabatlarini sezilarli kengaytiruvchi turli tuman faoliyat turlarini maqsadga qaratilgan holda tashkil qilish sohasi bilan bog'langan. Bajarilgan topshiriqlar tahlili tarbiyalovchi jamoalarning bu sohadagi o'zaro aloqasi yaxlit tarbiya jarayonining asosi bo'lib qolishini anglashga yordam beradi.¹⁴

O'smirlarning jismoniy o'sishi va jinsiy yetilishi ularning psixikasida keskin o'zgarishlarni vujudga keltiradi. O'quv fanlarining ko'payishi, axborotlar tarmog'ining kengayishi ularning fikr yuritishini jadallashtiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda endigina rivojlanish bosqichiga ko'tarilgan intellekt o'smirlik davrida yanada takomillashadi. Ta'lim jarayonida ularda materiallarni tahlil va sintez qilish, muammoning mohiyatiga tushunish jadal sur'atlar bilan o'sadi. Tafakkurning rivojlanishi intellektni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitadi.

Maktab ta'limi va mustaqil bilim olish faoliyati ta'siri ostida, o'smirda analitik-sintetik faoliyat jadal sur'at bilan rivojlana boshlaydi. Shuning uchun unda sabab va natijani izohlash uquvi mustahkamlanib boradi. O'quvchi materiallarning muhim belgilarini ajratishga, keng ma'noli umumlashtirishni amalga oshirishga harakat qiladi.

O'smirlar fikr yuritish faoliyatining xususiyatlaridan biri – yaqqol-obrazli, ko'rsatmali tafakkur tarkibining muhim rol o'ynashidir. Ularda mavhum tafakkur o'sishi bilan yaqqol-obrazli tafakkurning tarkibiy qismi mutlaqo yo'qolib

¹³ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. 21-bet.

¹⁴ Shodiyev N. Pedagogika fanidan muammoli vaziyatlar va o'quv topshiriqlari.-Toshkent: SamDU, 2004. 85-bet.

ketmaydi, balki saqlanib qoladi va rivojlanadi hamda tafakkurning umumiy strukturasi muhim rol o'ynaydi.

O'smirning eng muhim xususiyatlaridan yana biri mustaqil fikrlash, aqlning tanqidiyligi tez rivojlanishidir. Bu esa kichik maktab yoshidagi o'quvchidan farqli o'laroq, o'smirning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanganini bildiradi.

Maktab ta'limining bevosita ta'siri bilan o'smirda o'zini anglash jarayoni rivojlana boshlaydi. U o'zining fikriga, mustaqil qarashiga, biror masala yuzasidan o'z mulohazasiga ega bo'lishi uchun harakat qiladi. Shuning uchun o'qituvchi yoki ota-onaning aytganlariga, kitob va darsliklarga tanqidiy nuqtai nazardan qaraydi. Ko'pincha o'qituvchining mulohazasidan, darslikdan xato va kamchiliklarni topishga intilib, o'z gapida turib, ayrim fikrlarga qat'iy e'tiroz bildirishga, tortishishga va bahslashishga moyil bo'ladi.

Aqlning tanqidiyligi ayrim hollarda o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida «anglashilmovchilik g'ovi»ni vujudga keltiradi. Aqlning «tanqidiyligi» o'smirning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, u o'zgalar fikrini turli bahonalar, sabablar bilan yo'qqa chiqarishga qaratilgan bo'ladi.

Tafakkurning mustaqilligi inson uchun juda katta ahamiyatga ega. O'qituvchi dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda, har qanday og'ir shart-sharoitlarda ham turli usullar bilan bu hislatni qo'llab-quvvatlashi, uning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratishi kerak. Shuni ham esdan chiqarmaslik lozimki, dastlabki davrda o'smirning nuqtai nazarini, mulohazalaridagi xatolarini, muvaffaqiyatsizliklarni yomonlash, uni izza qilish, izzat-nafsiga tegish, masxaralash mutlaqo mumkin emas. Aks holda o'smir aqlining ajoyib sifati barbod bo'ladi va uning o'zi jamiyat hamda tabiat qonunlariga, holatlariga befarq qaraydigan shaxsga aylanib qoladi.

O'qituvchi o'quvchining aql-zakovatini to'g'ri, rivojlantirish uchun har bir imkoniyatni to'la, ishga solishi: 1) o'smirlarga to'g'ri ta'riflashni, taxlil qilishni, taqqoslashni, materiallarni mavhumlashtirish va umumlashtirishni o'rgatishi; 2) ularga o'z fikrini to'g'ri, ravon va aniq ifodalash yo'lini tushuntirib berishi lozim. Mustaqil ravishda hukm va xulosa chiqarish, mulohaza yuritish kabi aqlning turli

shakllaridan foydalanish o'smirlarda aqliy, faoliyat ko'nikma va malakalarini o'stiradi, natijada jadal rivojlanish pallasi amalga oshadi.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun avvalo o'smirlar oldiga turli ob'yektlarni mustaqil holda taqqoslash, ulardagi o'xshash va tafovutli jihatlarni topishni yuklash kerak. Buning uchun ularning diqqatini quyidagi savollarga javob berishga qaratish maqsadga muvofiqdir: «Bu holatda qanday umumiylik mavjud?», «Ushbu narsalar qaysi belgi va jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi?» «Mazkur narsalar va hodisalar o'rtasida qanday o'xshashlik belgisi bor?» va hokazolar.

O'smir aql-zakovatini kamol toptirish uchun ularga doimo mantiqiy tafakkur usullarini o'rgatib borish zarur. Bunda mantiqiy xatolarni tuzatib borishni aslo yoddan chiqarmaslik kepak. O'smirda to'g'ri mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda ona tili va adabiyot o'qituvchisining roli juda muhimdir. U hamma vaqt o'quvchilarga to'g'ri jumla tuzishni, ravon mulohaza yuritishni, fikrlashni, yozishni o'rgatib boradi.

Maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonida sinf rahbari, fan o'qituvchilari hamda maktab ma'muriyati tomonidan o'quvchilarni ijodiy faoliyat bilan band qilish muammosi har doim asosiy vazifa bo'lishi lozim.

«Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunini 17-moddasining «Maktabdan tashqari ta'lim»da: «Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar - o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining faoliyat ko'rsatish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi,» deb ta'kidlangan. Shuning uchun o'quvchi

bolalarni hamisha faoliyat bilan band bo'lishini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'smirlarning musiqaga va badiiy tasvirlashga bo'lgan qobiliyatlari ko'nikma va malakani tez o'zlashtirishida emas, balki mustaqil ravishda musiqa yozishda, rasm chizishda bo'lgan ehtiyojlarida namoyon bo'ladi.

Shu sababli qobiliyatlarning namoyon bo'lishi uchun har xil fan, mehnat to'garaklari qanday muhim ahamiyatga ega bo'lsa, qobiliyatni maksimal darajada o'stirish faqat qobiliyatli bolalarga emas, balki hali qobiliyatlari namoyon bo'lmagan o'quvchilarga ham alohida e'tibor berish vazifasini qo'ymog'i kerak.

O'smirlarning o'qish faoliyati motivlarini o'rganish orqali shu narsa aniqlandiki, ularning maktabdagi hulq - atvori va faoliyatlarining yetakchi motivi o'quvchilarning sinf jamoasida, o'rtoqlari o'rtasida o'z joylarini topishga intilishlaridir.

O'smirlarning o'rtoqlari o'rtasida o'z o'rnini topa olmaslik ularning intizomsizligining asosiy sababidir. Jamoa o'rtasida o'z mavqeiga bo'lmaslik o'smirlarga xos juda xarakterli intilishlarni aniqlab beradi, ular garchan o'z bilimi shunga arzimasa ham yaxshi baholar olishga harakat qiladilar. Bu esa shundan daololat beradiki, yaxshi o'qiydigan o'quvchilarning mavqei o'smirlar uchun g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining faoliyat ko'rsatish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi,» deb ta'kidlangan¹⁵. Shuning uchun o'quvchi bolalarni hamisha faoliyat bilan band bo'lishini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirda umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinflardan boshlab «Huquqiy tarbiya», «Konstitutsiya olamiga sayohat», «Bolalar Konvensiyasi» rukni ostida darsliklar va qo'llanmalardan foydalanilgan holda o'quvchilarga huquqiy tarbiya berib borilmoqda.

¹⁵ «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunini 17-moddasining «Maktabdan tashqari ta'lim». Toshkent. 28 avgust. 1997.

O'quvchilarga fuqarolik maqsad tuyg'usini yanada singdirish, ahloqiy e'tiqodlarni shakllantirish uchun:

- darsdan tashqari ishda ommaviy axborot vositalari, vaqtli matbuot, radio, televideniya da beriladigan «Inson va huquq» mavzusida suhbat va ma'ruzalar turkumidan, yuristlar gurungi va shu kabilardan foydalanib o'quvchilar o'rtasida huquq targ'ibotini kuchaytirish;

- o'quv mashg'ulotlarining rang-barang shakl va uslublaridan foydalangan holda o'yinlar, muammoli vaziyatlar, huquqiy organlar qoshida o'tkaziladigan ochiq muloqotlardan faol foydalanish;

- tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan axloq normalari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shaxs erkinligi, huquq va burchlari mavzularida targ'ibot ishlarini olib borish;

- o'quvchilarning darslarga qatnashishi va ularning hulqini o'rganish;

- o'zlashtirmaydigan bolalar bilan qo'shimcha dars olib borish;

- spirtli ichimliklarning zarari haqida o'quvchi va tarbiyasi og'ir bolalarga badiiy, hujjatli filmlar namoyish etish va muhokama qilishni tashkil etish;

- o'quvchilarning oilalarini e'tibor bilan o'rganib, ularning ota-onalari harakteri, xususiyatlarini, ma'lumotini, e'tiqodini, ma'naviy qiyofasini, bolalarga munosabatini har bir sinf rahbari bilishi;

- sinf rahbarlari va o'qituvchilar, hokimliklar qoshidagi voyaga etmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi inspeksiyalar bilan hamkorlikda turli tadbirlar o'tkazish va yoshlarni to'g'ri tarbiyalashda faol qatnashishlari talab etiladi.

Har yili an'anaga aylangan umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida «Siz qonunni bilasizmi?» ko'rik-tanlovining o'tkazilishi voyaga yetmagan o'smirlarni hayotda to'g'ri va mustaqil o'ringa ega bo'lishlarida o'z samarasini bermoqda.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: o'quvchilar o'rtasida kitobxonlik darajasini ko'tarish, kino, teatr, konsert va ko'rgazmalarga borish, sayohatlar,

sayllar, sport musobaqalari tashkil etish, tanlovlar, tarbiyaviy tadbirlar, bayramlarda ishtirok etish yaxshi samara beradi.

Hozirgi davrda o'smirlarni voyaga yetkazishning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'smirlarni kamol toptirishda ularning xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash, sinf jamoasi o'rtasida iliq psixologik muhitni yaratadi.

O'smirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari:

1) fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarayotgani;

2) ommaviy axborot tizimining kengayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasining ko'tarilgani;

3) o'g'il va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada habardorligi;

4) ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani;

5) o'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi;

6) oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani;

7) o'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.¹⁶

O'smirlik yosh davrida pedagogik muloqot bilan bog'liq nizolar o'ziga xos karakter kasb etadi. Bunday nizolarni tushunish va tahlil qilish uchun eng avvalo pedagogik muloqot jarayonini va unda uchraydigan to'siqlarni tahlil qilish kerak. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat jarayonida faqat axborot berish vazifasi emas, balki uni tushunishga erishish masalasi ham turadi. Bu esa birinchidan, shaxslararo axborot almashishda asosiy muammo sifatida o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotni o'quvchi tomonidan tushunish masalasi turadi.

¹⁶ G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi: nazariy eksperimental taxlil. – Toshkent: Noshir. 2010, 176 bet.

Muloqot jarayonidagi o'zaro munosabatlari hamda bir-birlari tasavvurlarga bog'liq bo'ladi.

Ikkinchidan, o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumot o'zgarmay qolmaydi, balki o'quvchining individual tipologik xususiyatlari o'quvchilariga nisbatan munosabati, muloqot vaziyati va matnning o'zidan kelib chiqib ko'chiriladi va o'zgaradi.

O'quv materialini idrok etishning adekvatligi nimalarga bo'g'liq bo'lishi mumkinligini o'rganish pedagogik psixologiyaning vazifalaridan biridir. Buning bir qator muhim sabablarini keltirish mumkin. Asosan buning sabablari pedagogik muloqotda to'siqlarning mavjud bo'lishi yoki mavjud emasligi bilan belgilanadi. Umumiy ma'noda kommunikativ to'siq bu pedagogik muloqot ishtirokchilari o'rtasida o'quv ma'lumotlarini to'g'ri uzatish yo'lidagi psixologik g'ov yoki to'siq hisoblanadi. To'siq mavjud bo'lganda o'quv ma'lumotlari buziladi va ma'nosini yo'qotadi. Pedagogik muloqotdagi to'siqlarni uch guruhga ajratish mumkin.

1. Shaxsiy;
2. Ijtimoiy psixologik;
3. Jismoniy.

Shaxsiy to'siqlar ichida quyidagi to'siqlar katta guruhni tashkil etadi.

- a) Ongdagi noto'g'ri ustanovkalar;
- b) Tafakkur stereotiplari;
- v) Yanglish fikr va tasavvurlar;
- g) O'zaro noto'g'ri munosabat;
- d) Boshqaga nisbatan qiziqish va diqqatning yo'qligi.

Stereotiplar odamlar yoki vaziyatlar haqidagi o'zgartirilgan va barqaror fikrlardan iborat. Stereotiplar pedagogik jarayonda ikki xil usulda shakllanadi yoki ma'lumot ma'nosi yanglish bo'ladi:

1. Gapi-rayotgan kishining stereotiplari.
2. Tinglovchining tafakkur stereotiplari.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi yolg'on tasavvurlar asoslanmagan darajadagi o'zini yuqori baholash va o'ziga nisbatan tanqidiylik darajasining tushganligi tufayli shakllandi.

Pedagogik muloqotda yolg'on fikr quyidagi hollarda ko'rinadi.

1. Odamni tashqi ko'rinishiga asoslanib idrok qilishga aloqador yolg'on stereotiplar, ya'ni (ko'zoynakli kishi aqlli yoki sport kiyimidagi kishi aqlsiz va hokazo). Tashqi ifodalanishga qaratilgan ustanovka o'quvchini bilib olishga nisbatan bo'lgan pedagogik faoliyatdagi zo'r berishni tejaydi, ammo bunday ustanovkalar ko'pincha pedagogik yanglishishga olib keluvchi xatolikni keltirib chiqaradi.

2. Kishining obro'si yoki kamchiliklarini faqat ijtimoiy mavqeiga qarab qayd etish. Bunday holatda o'quvchi yoki talaba qiyin vaziyatda qoladi, chunki o'quvchining ijtimoiy mavqei o'qituvchinikidan albatta pastroq.

3. O'qituvchi o'quvchilar haqida boshqalardan olgan ma'lumotlarga tayangan holda shakllangan qoliplar, andozalar, shablonlar, g'arazlik va hokazo. Pedagog ularga asoslanib pedagogik muloqotning yanglish yo'lini tanlaydi yoki umuman undan tashqarida bo'ladi. Shu sababli pedagogik muloqotda o'quvchi haqidagi haqiqiy bilimga ega bo'lish uchun o'qituvchi «yaxshi» va «yomon» tomonlarini umumlashtirish va «yaxshi» tomonlariga tayanib pedagogik muloqotni tashkil etish va xilma-xil informasiyalar asosida shakllangan ustanovkalarni tekshirib ko'rishi lozim. Ya'ni har bir kishi nimasi bilandir boshqasidan yaxshiroqdir - degan prinsipga tayanishi kerak bo'ladi.

Muloqot va hamkorlikdagi faoliyat jarayonida hosil bo'ladigan o'zaro ta'sir va bog'lanishlar majmuasidan iborat psixik faoliyat hisoblanadi. U boshqa kishilarning faoliyati va hulq - atvorining ayrim natijalarga erishishini belgilaydi. Har bir kishi jamiyatda ma'lum rolni bajaradi. Roli mavqelarning juda ko'pligi tufayli ular o'rtasida to'qnashuvlar va nizolar kelib chiqadi.

Ayrim vaziyatlarda shaxslararo munosabatlarda nizolarni keltirib chiqaruvchi vazifa, maqsad, qadr-qimmatni toptaydigan ziddiyatli pozitsiyadagi munosabatlar ham uchrab turadi.

2.3. O'smirlarda tajavuzkor hatti-harakatlar shakllanishini oldini olishda mahalla kengashi faoliyatining ahamiyati.

Jamiyatimizda yoshlar tarbiyasida ayrim bo'shliqlari vujudga kelayotganini, dunyoqarashi past, bilimi zaif, yosh bo'lsada, jinoyatga qo'l urgan, ichkilik va chekishga ruju qo'yishgan, o'qishga qiziqmaydigan, tarbiyasi og'ir bolalarning borligi tashvishli holdir.

Kun sayin taraqqiy etib, ravnaq topayotgan jamiyatimizda yuqoridagiga o'xshagan tarbiyasi og'ir, jinoyatga qo'l urayotgan o'smirlar qayerdan paydo bo'layapti? Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qituvchilarimiz yetarli bilim berishmayapti-mi? Turmush tashvishlari bilan o'ralashib, oilada farzand tarbiyasiga e'tiborsiz qarayotgan ota-onalar aybdor-mi, yoki farzandlarimiz o'zlari loqayd, beparvo, sovuqqon bo'lib qolayotganlari tufayli-mi?

Avvalo, o'smirlarni tartibbuzarlikka jalb etayotgan qator ijtimoiy-ruhiy omillar mavjud. Bular:

- o'smirlarda bo'sh vaqtning ko'pligi;
- kattalar tomonidan nazoratning yo'qligi;
- bo'sh vaqtni o'tkazish joyi va vaqtining betayinligi;
- ko'ngilochar va zararli odatlar o'tkazishga imkon borligi va boshqalar.

Shunday oilada o'sgan bolagina, ota-onani, qolaversa o'z ustozlarini hurmat qiladigan, mahalla ko'yda o'zidan kichikni hurmatlash, kattalarni izzatlashni o'z o'rniga qo'yadigan, xalqparvar bo'lib yetishadi.

Har bir tarbiyachi tarbiya san'atkori bo'lmog'i lozim. Bu bolalarni sevishtirish san'atidir.

Tarbiyasi og'ir, qarovsiz qolgan bolalarning ota-onalari bilan ishlash, ularni jamoatchilik kengashlariga olib chiqish, foydali mehnatga jalb qilish, to'garaklarga qatnashtirish, hunarmanchilikka o'rgatishni ta'minlash, har bir tarbiyasi og'ir bolaga jamoatchilik faollarini biriktirish, vaqti-vaqti bilan ularning hisobotlarini tinglash lozim.

Oiladagi bolalarni to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyadagi birlikdir.

Bu avvalambor oila qadriyatlarini saqlab qolishda namoyon bo'ladi. Nizoli holatlar paydo bo'lganda xotin-qizlar qo'mitasi yoki mahalla oila vakillari bilan suhbat o'tkazadi va odatda vaziyatga oydinlik kiritadi va ajralishlar bo'lishiga olib keladi. Bundan tashqari mahalla ishsizlarga ishga joylashishlariga, milisiya hodimlariga tartibni saqlashda yordam beradi, xizmatga chaqirilganlar bilan tushuntirish ishlari olib boradi. Avvalgiday jamoa o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda muhim o'rin tutmoqda. Hozirda mahalla bolalar bog'chalari va maktablari bilan yaqin hamkorlik olib borib, ularga ta'mirlash ishlarini olib borishda, tarbiya ishlarida yordam ko'rsatadi. Mahalla qo'mitasi majlislarida maktab intizomining jiddiy buzilishlari ham ko'rib chiqiladi. Yoshlarga ta'sir ko'rsatishning bu rasmiy tarmoqlaridan tashqari jamoani nazorat qilishning an'anaviy usuli ham saqlanib qolgan. Har qanday mahallada boy hayotiy tajribaga ega odamlar mavjud. Ularning asosiy vazifasi aholining an'anaviy axloq-odob qoidalariga rioya qilishlarini, bolalarning ko'chadagi yurish-turishini nazorat qilishdir. Ular har qanday odamga tanbeh berishlari mumkin, biroq bu ishni doimo ularning hurmatini saqlagan holda amalga oshiriladi. Ota-onalarning bunday munosabatni qadrlashi taqsiinga sazovor. Shuning uchun «mahalla sening ham otang ham, onang» degan maqol mavjud. Boshqa sohalarda namoyon bo'ladigan milliy tiklanish, xalqning milliy o'z-o'zini anglashni faollashtirish orqali bo'ladi. U sobiq Sovet ittifoqi davrida bu kabi an'analar to'liq yo'qolib ketmagan, balki ayrim oilalarda o'zigi xos tarzda saqlanib qolgan va yoshlarga berilgan. Bu ayniqsa, hayotning an'anaviy turmush tarzini saqlab kelayotgan eski shahar mahallalarida yashovchilar orasida yaqqol namoyon bo'lgan. Mahalla fuqarolarining yuqori savodxonlik va madaniy darajasi (yosh va o'rta avlod, o'rta yoki oliy ma'lumotga ega) badiiy ijodning keng rivojlanishi, hayotning marosimlar o'tkazishda ma'naviy o'z-o'zini ifodalashning keng imkoniyatlarini ko'zda tutadi.

Hozirgi kunda mahallaning ahamiyati oshib bormoqda. Biroq yoshlar tarbiyasida muammolar kam emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarning axloqiy tarbiyasiga halaqit beradigan bir qancha holatlar ham kelib chiqmoqda. Yoshlarning yoshligidanoq savdo-sotiq qilishga va boshqa tijorat ishlariga

sho'ng'ib ketishi ularning o'qishiga, bilim olishga bo'lgan intilishlariga, ijtimoiy munosabatlarga kirishishga, salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ba'zi hollarda muallimlar o'quvchilarni to'liq tarbiyalash imkoniyatidan maxrumdirlar, ya'ni ular boshqa faoliyat bilan ham shug'ullanadilar. Jamiyatni demokratiyalashtirishning mazkur bosqichida yoshlar kata imkoniyatlarga, faoliyat turini tanlashda keng imkoniyatlarga ega bo'lishdi. Biroq ular bulardan to'liq foydalana olmaydilar. So'ngi yillarda yoshlar orasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish susaydi, din ta'siri kuchaydi va bu natijada yoshlar mafkuraviy sohada o'z mo'ljallarini yo'qotishlariga olib keldi. Mahalla oldida tarbiyaning an'anaviy usullaridan foydalanib yosh avlod bilan yanada faol ish olib borish, ularda hozirgi jamiyat talablariga muvofiq keladigan dunyoqarash va axloqiy tamoyillar hosil qilishdan iborat.


Bunday ulkan, mas'uliyatli, sharaflı ishni **oila, maktab, mahalla**, keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o'rin egallaydi.¹⁷

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch» asarida: «Yangi jamiyat bunyodkori bo'lmish yangi insonni tarbiyalashda hozirgi paytda mahallalarimizda samarali faoliyat olib borayotgan, bu noyob tuzilmani tom ma'noda o'zini - o'zi boshqarish idoralariga aylantirishga katta hissa qo'shib kelayotgan mahalla oqsoqollari va faollari, fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy masalalar bo'yicha maslahatchilarining ijobiy ta'siri tobora ortib bormoqda. Aynan ana shu insonlarning odamlar ko'ngliga yo'l topib, ularning dard-u tashvishiga sherik bo'lib, o'z vaqtida berayotgan amaliy yordamlari, to'g'ri va o'rinli maslahatlari tufayli oila va mahalla muhitida, butun diyorimizda tinchlik va osoyishtalik, o'zaro mehr-oqibat tuyg'ulari kuchayib borayotganini el-yurtimiz yuksak qadrlaydi. Ayniqsa, yosh yigit va qizlarimizning mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning jamiyatdan o'ziga munosib o'rin topishida bu fidoyi va mehribon,

¹⁷ Xalq ta'limi vazirligining 2004 yil 26 fevraldagi 26-sonli hayat majlisi qarori bilan «Oila, mahalla, maktab» Konsepsiyasi.

jonkuyar odamlarning qanchalik muhim rol o'ynayotganini hurmat bilan e'tirof etishimiz lozim», -deb yozadi.¹⁸

Оила ва маҳалла ҳар томонлама бир-бирлари билан боғлиқ. Маҳалла оилалардан ташкил топади. Маҳалла оиланинг энг яқин маслаҳатчиси дир.



Bob yuzasidan xulosalar:

Mazkur ikkinchi bobning birinchi bandida: «O'smirlar o'rtasidagi ziddiyatlarni oldini olishda oilaning o'rni» masalasiga bag'ishlangan.

Oila –tarbiya maskani. Dunyoga kelgan farzand ota-onadan axloq-odob qoidalarini, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi qadriyatlarni egallaydi.

¹⁸ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat. 2008, 132- bet.

Ota-ona, avlod-ajdodlarimiz tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, o'g'il-qizlarni yoshligidan mehnatsevar, har bir topshiriqni katta yoki kichikligidan qat'iy nazar o'z vaqtida, aniq bajaradigan, umrining har bir daqiqasini qadrlaydigan qilib tarbiyalash lozim. U yoki bu oiladagi tarbiyaning samaradorligi, albatta, ota-onaning qanchalik bilimli, madaniyatli bo'lishi, bola tarbiyasiga mas'uliyat bilan qarashlari, farzandlari kelajagini chuqur his etishlari, tajribada sinalgan milliy urfodat va an'analardan unumli foydalanishlariga bog'liq. Tarbiyada talabchanlik, ota-ona va katta yoshdagi kishilarning o'zaro axilliklari, kichiklarga g'amxo'rlik, osuda turmush va halol mehnat faoliyatlari oilaviy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Bundan tashqari har bir oilada farzand tarbiyasida aniq bir maqsad bo'lishi kerak.

Ikkinchi bobning ikkinchi bandi: «O'smirlardagi agressiv xatti-harakatlarni bartaraf etishda maktabdagi psixologik muhitning o'rni» deb nomlangan va unda maktabda hamda maktabdan tashqari ta'limda o'quvchilarni doimo faoliyat bilan bandligi ochib berilgan. Maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonida sinf rahbari, fan o'qituvchilari hamda maktab ma'muriyati tomonidan o'quvchilarni ijodiy faoliyat bilan band qilish muammosi har doim asosiy vazifa bo'lishi lozim.

«Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunini 17-moddasining «Maktabdan tashqari ta'lim»da: «Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining faoliyat ko'rsatish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi,»deb ta'kidlangan¹⁹. Shuning uchun o'quvchi

¹⁹ «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunini 17-moddasining «Maktabdan tashqari ta'lim». T. 28 avgust.1997.

bolalarni hamisha faoliyat bilan band bo'lishini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: o'quvchilar o'rtasida kitobxonlik darajasini ko'tarish, kino, teatr, konsert va ko'rgazmalarga borish, sayohatlar, sayllar, sport musobaqalari tashkil etish, tanlovlar, tarbiyaviy tadbirlar, bayramlarda ishtirok etish yaxshi samara beradi.

Mazkur ikkinchi bobning uchinchi bandi: «O'smirlarda tajovuzkor xatti-harakatlar shakllanishini oldini olishda mahalla kengashi faoliyatining ahamiyati» deb nomlangan.

Ushbu banda jamiyatimizda yoshlar tarbiyasida ayrim bo'shliqlari vujudga kelayotganini, dunyoqarashi past, bilimi zaif, yosh bo'lsada, jinoyatga qo'l urgan, ichkilik va chekishga ruju qo'yishgan, o'qishga qiziqmaydigan, tarbiyasi og'ir bolalarning borligi tashvishli hol ekanligi va uni bartaraf etish yulida mahalla faollari ishini yanada jonlantirish, profilaktika noziri ishini kuchaytirish, doimiy ravishda oila va maktab bilan hamkorlik qilishi kerak .

III BOB. O'SMIRLARDAGI NIZOLARNI BARTARAF ETISHDA MAHALLA KENGASHI FAOLIYATINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK AHAMIYATI.

3.1. O'smirlarda nizoli vaziyatlarning psixologik taxlili.

Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, shaxsni shakllantirishni insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o'smirlar taqdiri masalasi ham g'oyat jiddiy tus oldi. O'smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotlilik, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur.

O'smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda o'quvchi bilan o'qituvchining muloqotida, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar vujudga keladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'iladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi. O'qituvchining yangi mavzuni batafsil tushuntirishi, darslar ma'ruza shaklida olib borilishi o'quvchilarni zeriktiradi, ularda o'qishga loqaydlik tug'iladi. Ilgari o'quv materialini ma'nosiga tushunmay yodlab olishga odatlangan o'smir endi zarur o'rinlarni mantiqiy xotira va tafakkurga suyangan holda o'zlashtirishga harakat qiladi, o'zlashtirilgan bilimlarni talab qilinganda o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida anglashilmovchilik paydo bo'ladi, tahsil oluvchi unga qarshilik ko'rsata boshlaydi. Odobli, dilkash o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. Kattalarning yo'l-yo'riqlariga, talablariga muloyimlik bilan javob qaytarib yurgan o'smir ularga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Uning fikricha, kattalarning talablari, ko'rsatmalari mantiqan ixcham, dalillarga asoslangan, etarli ob'ektiv va sub'ektiv omillarga ega bo'lishi kerak.

O'smirda shaxsiy nuqtai nazarning vujudga kelishi sababli u kattalarning, o'qituvchining qayg'urishi, koyishiga qaramay, o'zining fikrini o'tkazishga harakat qiladi. Uning o'z qadr-qimmatini haqidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga

munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma'lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo'lib qoladi. Serzardalik kundalik xatti-harakatning ajralmas qismiga aylanadi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi yoki ota-onani qattiq tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o'quvchiga munosabatini o'zgartiradi. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar, nizolar kelib chiqadi.

Ayrim pedagoglar o'smirlik davri inqirozi to'g'risida kuyinib gapiradilar, ba'zi illatlarni tanqid qiladilar va ularning ijtimoiy-psixologik ildizini topishga intiladilar. Aslida esa o'smirlarga yondashishda metodologik kamchilikka yo'l qo'yadilar. Mazkur illatlarning oldini olish chora va tadbirlari tizimini ishlab chiqa olmaydilar. Bu masalaga to'g'ri yondashish ayrim ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan va o'smirlik davri inqirozi haqida mulohaza yuritishdan ko'ra, kattalar bilan o'smirlar muomalasining inqirozi haqida gapirish to'g'riroq bo'ladi, deb hulosa chiqarilgan.

O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch – uning faoliyatini vujudga keltirganligi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Mana shu dialektik qarama-qarshiliklar ortib borayotgan jismoniy, aqliy hamda axloqiy imkoniyatlar bilan barqarorlashgan stereotipga aylangan tashqi olamni aks ettirishning shakllari o'rtasida sodir bo'ladi. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni, psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yo'qotish mumkin. Bu davr insonning kamoloti yuqoriroq bosqichiga ko'tarilishi bilan yakunlanadi. Kamol topish o'smirdan umumlashtirish, hukm va hulosa chiqarish, mavhumlashtirish, ob'ektlar o'rtasidagi ichki munosabatlarni o'rnatish, muhim qonun, qonuniyat, xossa, xususiyat, mexanizm va tushunchalarni anglash, ixtiyoriy diqqat, barqaror qiziqish, ongli motiv va mantiqiy eslab qolishni talab qiladi. Bularning barchasi fanlarga doir bilimlar tizimini vujudga keltiradi, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, o'zini - o'zi nazorat qilish, baholash, anglash singari xususiyatlarni tarkib toptiradi.

Maktab va bilim yurtida oilada mustaqil faoliyatga keng imkoniyatlar bo'lsa, o'quvchi muayyan vazifa va topshiriqlarni, bajara boshlaydi. Natijada o'smirning ijtimoiy mavqei ortib, faoliyati takomillashib, psixikasi har tomonlama rivojlanib boradi.

Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Shu sababli bizda o'g'il va qizlarni 10–11 dan 14–15 yoshigacha o'smirlik yoshida deb hisoblanadi.

Venalik psixolog Z.Freyd va uning shogirdlari o'smirlik davrini baholashda insonga azaldan berilgan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan o'z mavqeini belgilashga ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar. Bu intilish go'yoki xudbinlik, boshqa kishilarni mensimaslik, paydo bo'lishga, atrof-muhit bilan kelisha olmaslikka, hatto nizolarga olib kelar, ongsizlik ehtiyojlari va mayllari shaxsning faolligini belgilar emish. Sobiq sovet psixologlari Z.Freyd nazariyasining mutlaqo asossizligini ta'kidlab, o'smirda imkoniyat bilan talabchanlik o'rtasidagi kelishmovchilik, o'zini ko'rsatishga moyillik va o'z ichki dunyosiga qiziqishning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanishini asoslab berdilar.²⁰

Ayrim psixologlar biogenetik o'sishning biologik omillariga, ya'ni jinsiy yetilishga alohida ahamiyat beradilar. Ularning fikricha, o'smirning psixik jihatdan inqirozga yetaklovchi, hayajonga soluvchi sub'ektiv ichki kechinmalari o'g'il va qizlarni tanxolik psixologiyasiga tortar emish. O'smir uchun harakterli norozilik, qo'pollik, qaysarlik, shafqatsizlik, tajanglik, ginaxonlik, tajovuzkorlik kabi illatlar jinsiy yetilishning maxsuli yangi tuyg'ular, mayllar, kechinmalar o'smir xatti-harakatida hukmron bo'lib, uning xulq-atvorini boshqaradi deb tushuntirilmoqda. O'smirlikning psixologik qiyofasi, holati, imkoniyati yagona sof biologik omilga bog'liq emasligi hammaga ayondir.

Amerikalik psixolog R.Kulen o'smirlik davri haqidagi biogenetik nazariyani qattiq tanqid qilib, o'smirlik davri ijtimoiy-axloqiy kategoriyadir, degan g'oyani ilgari suradi. Ammo noto'g'ri nuqtai nazardan o'smirlikni biologik va psixologik

²⁰ G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi: nazariy eksperimental taxlil. – Toshkent: Noshir. 2010, 179 bet.

kategoriyadan tashqari deb hisoblaydi. R.Kulenning fikricha, o'smirlik davrida uchta asosiy ijtimoiy-axloqiy tamoyil mavjud bo'lib, ular emansipasiya (kattalar ta'siridan qutulish) va mustaqillikka erishish, hayot yo'li va kasb-hunar tanlashga jiddiy munosabatda bo'lish, zarur ijtimoiy-axloqiy normalarni o'zlashtirishdan iboratdir. Uning fikricha, bola yuqoridagi muammolarga e'tibor bermas ekan, o'smirlik davri qancha bo'lishidan qat'i nazar, u bolaligicha qolaveradi. R.Kulen o'z nazariyasida biologik omillarni ham, o'smirlik davridagi o'sishning psixologik xususiyatlarini ham hisobga olmaydi, aksincha, ularni batamom inkor qiladi.

Psixologlarning fikricha, o'smirlarga real ijtimoiy turmush shart-sharoitlari va shaxs faoliyatining mahsuli deb qarash mumkin emas, chunki o'sishning biologik va psixologik qonuniyatlarini inkor qilishga haqqimiz yo'q. Shuningdek, o'smirlik davrining muayyan hech o'zgarmas xususiyati va karakteristikasi mavjud emas. O'smirlar o'rtasidagi o'ziga xos tipologik farqlarni ijtimoiy omillarning ta'siri bilan, ta'lim va tarbiya sharoitlarining xususiyatlari bilan izohlash mumkin.

Shu bilan birga, o'smirning jismoniy o'sishi xususiyatlari, jinsiy yetilishining iqlim va milliy-etnografik omillari ham bor.

Bola va o'smir shaxsining rivojlanishi uchun tajovuzkorlik ko'rinishigina emas, uning natijasi va atrofdagilarning noto'g'ri reaksiyasi xavflidir. Qachonki zo'ravonlik e'tibor, hukmronlik, tan olish, pul, boshqa afzalliklar bergan holatda bolalar va o'smirlarda katta ehtimol bilan kuch madaniyatiga asoslangan ijtimoiy ishlaydigan va katta odamlar (masalan, jinoiy guruhlar) asosida tuzilgan ahloq shakllanadi. Atrofdagilarning tajovuzni kuch bilan bostirishga urinishlari ko'p hollarda qarama-qarshi kutilgan samaraga olib keladi.

Tarbiyasi og'ir o'smirlar guruhlar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning uslublari va texnologiyalari quyidagilar:

Maktab yordamida:

-maktab va maktabdan tashqari o'smirlar jamoasi yordamida tarbiyaviy ta'sir (seksiya, klub, to'garaklar);

-intizomli, a'lochi o'quvchilarning pedagogik qarovsiz sinfdoshlariga ta'siri. Bu yo'nalish bir-biri bilan do'stlashish xohishi, o'zaro muomalaga talab bo'lganda

juda muvaffaqiyatli amalga oshib, uning asosida qiziqishlar umumiyligi (sevimli sport turi, texnika, musiqa va boshqalar bilan shug'ullanish) yotadi. Bu yo'nalishning amalga oshirishning muvaffaqiyati ko'p borada o'qituvchi, sinf rahbarining mohir rahbarligiga bog'liq.

-sinf jamoasining pedagogik qarovsiz o'smirlarga ta'siri. Bunaqa birgalikdagi faoliyat (sayohatga chiqish, spartakiadalar, san'at festivallari, ko'rgazmalar, jamoaviy harakatlar)ni talab qiladi. Sinfda jamoaviy ishlarga jalb qilingan pedagogik qarovsiz bolalar nafaqat o'zlari uchun balki jamoa uchun ham mehnat qilayotganlarini va ularning ishtirokiga ko'p narsa bog'liqligini anglab yetishadi. Bunaqa faoliyatlarda og'aynichilik aloqalari vujudga keladi, boshqalarga nisbatan to'g'ri munosabat shakllanadi, yuksatilgan vazifa uchun ma'suliyat hissi ortadi;

-pedagogik qarovsiz bolalarga tarbiyaviy ta'sirning ko'rib chiqilgan yo'nalishlari mikrotuman tarbiyaviy ishida maktab jamoasi bilan birgalikda va bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi.

Maktabdan tashqari o'smirlar jamoasi yordamida tarbiyaviy ta'sirni tashkil qilishda quyidagi holatlarni inobatga olish lozim:

-birinchidan to'garak, seksiya, klubda o'smirlarda aniqlangan bitta qiziqish bilan cheklanmaslik lozim (akvariumistika yoki sport bilan shug'ullanish) balki mehnat, turli o'yinlar, ijodiy faoliyat orqali pedagogik o'smirlarni atrofdagilar bilan normal munosabatlarga tayyorlashga intilish lozim.

-ikkinchidan, norasmiy guruhga yoki uning aksariyat a'zolariga ta'sir ko'rsata turib ularni rasmiy guruhga o'tishlariga erishsa bo'ladi. Bu jarayonni shartli ravishda «rasmiylashtirish» deyishadi. Bu jarayon o'smirlar uchun sezilmaydigan holda tarbiyachi tomonidan norasmiy guruhning rasmiy guruhga aylanishidir.

Pedagogik qarovsiz bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borishning yana bir xususiyati o'smirlarni o'zi tanlashgan, uning bajarilishidan qoniqish sezishadigan faoliyatni tanlashdir. Asta-sekin faoliyatdagi bunday ehtiyojni qondirish va rivojlanish, keyinchalik uni o'smirlarda bajarayotgan ishlari uchun ma'suliyat hissini oshiruvchi faoliyat turlari bilan to'ldirib borish lozim.

Tarbiyasi og'ir bolalar yoki o'smirlar bilan ish olib borish pedagogik qayta tarbiyalash jarayonini ko'zda tutadi.

Qayta tarbiyalash-bola yoki o'smir yurish-turishidagi turli cheklanishlarni yengib o'tish yoki bartaraf etishdir. Qayta tarbiya ham tarbiyachi ham tarbiyalanuvchilar uchun ham og'ir jarayondir. Tarbiyalanuvchi yangi yo'lni istiqboli bilan qiziqishi lozim. Tarbiyachi esa tarbiyalanuvchining o'tmishi, bugungi kunini taxlil qilib uning kelajagini tasavvur etishi lozim.

O'smirni qayta tarbiya yoki o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorlash jarayoni bir necha bosqichdan iborat:

Tarbiyalanuvchini o'rganib chiqish;

O'smirning yurish-turishini o'zgartirish uchun uning ruhiy tayyor qilish;

Ijobiy axloqiy hislatlarni to'plash;

Inqirozdan chiqish, o'z-o'zini tarbiyalashga o'tish.

Shuni ham inobatga olish kerakki, bu jarayonga tarbiyachidan tashqari o'smir mansub bo'lgan tarbiyalanuvchilar jamoasi ham qo'shiladi. Bunda tarbiyachi koordinator vazifasini bajarib, jamoani o'z o'rtoqlarini qayta tarbiyalashga yo'naltiradi. O'smirlar bilan rehabilitatsion markazda ishlayotgan ijtimoiy pedagog metodlardan biridan foydalanib tarbiyalanuvchi oldida idealga o'xshash maqsadini qo'yadi. Bu axloqiy komil inson o'smirning ijobiy yurish-turishning shakllanishiga yordam beradi.

3.2. Mahallalarda o'smirlar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etuvchi psixokorreksion mashqlar tavsifi.

O'smirlar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etuvchi bir necha psixokorreksion mashqlar mavjud. Shuningdek, nizolarning «g'olib-g'olib» usuli har ikki tomonning manfaatlarini saqlab qolishga qaratilgan yo'ldir. Chunki, haqiqatan ham ziddiyatli vaziyatda barcha ishtirok etuvchi tomonlar g'olib bo'la oladi. Nizolar yechimi aynan g'olib bo'la olish qonuniyatlarini o'rgatadi. Buning uchun g'oliblik strategiyasini qo'llash lozim:

➤ *G'olib bo'lishlikning birinchi talabi o'z opponentiga qarshi kurash emas, balki uning maqsadlari va manfaatlarini tushunishga harakat qilishdir;*

➤ *norozilikka rozilik amallari qo'llash;*

➤ *boshqalarning fikrlari, qarashlari va xulosalari biznikidan o'zgacharoq bo'lishi mumkinligini tushunish va qabul qilish kerak. Shuningdek, ochiq samimiy muloqotga tayyorlik;*

➤ *birovlarining his-tuyg'ulari va emotsiyalarini hurmatlash;*

➤ *boshqalarning manfaatlarini aniq belgilashga harakat qilish;*

➤ *manfaatlar orasidagi uyg'unlik asosida yagona strategiyani ishlab chiqish lozim.*

Nizolar vaziyatlardagi stereotip harakatlar o'zini nizolardan qochish va unga mayin bosim o'tkazishda namoyon bo'ladi. Ammo bu sayi-harakatlar nizolarni to'layechib bermaydi va tomonlar orasidagi muammoni ham hal eta olmaydi. Faqat o'zaro umumiy kelishuv asosida tomonlarning bir maqsad sari samimiy intilishi, butun kuch va diqqatni qarshi tomon shaxsiyatiga emas, balki nizolaram keltirib chiqargan muammoga qaratish, ziddiyatning to'la va haqiqiy yechimi uchun asos bo'la oladi. Nizolar yechimiga to'g'ri munosabatni shakllantirish masalasida shuni bilish, rioya etish zarurki, ziddiyatda har ikki tomon ham g'olib bo'lishi mumkin. Har ikki tomonni g'olibligi nizolarning to'g'ri hal qilinganligini namoyon qiladi, ammo mana shu g'oliblik ortida har ikki tomonning mehnati, sayi-harakatlari, irodasi va intilishi yotganligini ham bilish, g'oliblik o'z-o'zidan kelib chiqmasligini anglash zarur.

Ko'pchilik hollarda nizolar zo'ravonlikning qo'llanishiga olib keladi. Biroq, zo'ravonlik odatdagi hayotiy voqea emas. Nizolarda zo'ravonlikning qo'llanilishi bu ziddiyatning eskalasiya va agressiyaga olib kelinishi natijasi hisoblanadi. Har qanday nizolar vaziyatning oldini olsa bo'ladi. Afsuski, ko'p hollarda nizolarlarni tinch yo'l bilan hal etish imkoniyati boy beriladi.

Bunday axvoldan qanday chiqib ketish kerak? Bu holda «Adolatparvarlik mezonlari» bizga qo'l keladi hamda nizolarni zo'ravonliksiz va kuch ishlatmasdan muvaffaqiyatli hal etish imkon yaratadi. «Adolatparvarlik mezonlarini» qo'llash,

hech kim mag'lub emasligini, balki barcha g'olib bo'lib qolishini isbotlaydi. Nizolar yechimida qo'llaniladigan adolatparvarlik mezonlari, ya'ni qoidalari quyidagilardan iborat:

1. Muammoni aniqlash:

Muammo - nima? Muammoning ichki mazmunini anglashga harakat qiling. Muammo chegararini belgilashda xolis hamda vijdonli bo'ling. Muammoni avval o'zingiz aniq idrok etib olishga harakat qiling. Muammoni anglash jarayonida sabrli va bosiq harakat olib boring. Nizolar jarayondagi haqiqatni anglashga sayi-harakat qiling. O'zingizning hissiyotlaringiz ham boshqalarning so'zlari, ular emotsiyalariga ham e'tiborli bo'ling. Muammoni qanday hal qilayotganligingizni to'g'ri va aniq anglab yeting. Muammoni umumlashtiring, uni ma'qul miqdorda xulosalashga erishing. Fikrlaringizni umumlashtiruvchi va yaqinlashtiruv o'rinlarni topib, umumkelishuv yo'lida ulardan to'g'ri foydalaning. Muammoni ro'kach qilmang. Opponentingizga ham muammoni o'zi anglab yetishi uchun imkon bering. U ham siz anglab etgan muammoni sizning darajangizga yaqin darajada his qilishini kuting. Muammoni ikkalangiz qanday ko'rayotganligingiz haqida sabr bilan suhbat va mushohada qiling. Muammoni anglash sizlarning fikringizni umumlashtiruvchi xususiyatlar va belgilarni aniqlab, belgilab olish, opponentiz bilan o'z diqqatingiz va e'tiboringizni aynan muammoga qaratishga kelishib oling. Opponentingiz biror narsani tez anglab yetmasa, uni shoshiltirmang. Uning mushahada xulosaga yetishi uchun imkon bering. Nizolar muammo mavjudligi uchun kelib chiqayotganligi o'zingiz qabul qiling hamda o'z diqqatingizni muammoga qarating. Nizolarning kelib chiqishi muammo rol o'ynashini esingizdan chiqarmang. Eng muhimi - diqqat va energiyani o'zga shaxsga qarshi emas, balki muammoga qaratish.

2. Muammoda fikrni jamlash:

Muammo - nizolar, ya'ni kelishmovchilikning yuzaga kelishi uchun sabab bo'lgan vaziyat, hodisa, voqea hisoblanadi. Mana shu vaziyat, hodisa, voqea o'z-o'zidan kelib chiqmaydi. O'z sabablari mavjud. Sizlarni to'qnashtirgan narsa xuddi shu vaziyat, xodisa va voqea; maqsadlaringiz, manfaatlarning to'qnashuvi hisoblanadi. Muammoni yuzaga keltirishda rol o'ynagan siz va opponentingizning

maqsadlarini bir-biriga solishtirish orqali, ularda; umumiy va qarama-qarshi tomonlarni belgilang. Ammo bu jarayonda, shu bilan birga umum nizolar yechimida, qo'llash mumkin bo'lmagan qoidalar mavjud. Ular:

- Ziddiyat bahonasida opponentingiz bilan umr bo'yi bo'lib o'tgan barcha nizolarni sanab chiqish, ularni ular kelib chiqqan paytda emas, aynan yangidan vujudga kelgan ziddiyatli vaziyat qo'llash, esga olish va opponentingizni avvalgi ayblari uchun jazolashga intilish - mumkin emas! Shuningdek, «u sizni qachon behurmat qilgan-u, qachon sizga boshqacha ko'z bilan qarash, ya'ni barcha nizolar tarixini doston qilish, hissiyotlarga berilib ketish, butun hayotingiz davomida opponentingiz bilan bo'lib o'tgan barcha nizolarni qayta tahlil qilishga urinish - mumkin emas! Nizolar jarayonida «Sen har doim menga shunday munosabatda bo'lgansan, bir yil avval bu qilgansan, ikki yil avval boshqa narsa qilgansan...» qabilida nizolar tarixiga mukkasidan ketish, ularni doimiy yodda saqlashga urinish, har gal nizo chiqqanida ularni ataylab esga solish - mutlaqo mumkin emas!. Opponentingizga doimiy ta'na qilish, muhokama etilgan va avvallari kechirimlar bilan tugallangan nizolar vaziyatlarni ham esdan chiqarmasdan, ularni o'z psixologik-ruhiy holatining muhim «kuch» sifatida asrab-avaylab yurish - bu ham mutlaqo mumkin emas! Shu bilan birga, e'tiborni muammoga emas, balki o'z xissiyotlari va ulardan qolgan hafagarchilikka qaratish - mutlaqo mumkin emas!

Nizolardan chiqib ketish avvalo insonning o'zining emosional-psixologik holatini pokiza tutish va ozoda qilishdan boshlanishi lozim. Agar siz o'zingizning nizolarga bo'lgan munosabatingizni tarixiy xodisalar va ziddiyatlar girdobida boshlasangiz va ularga suyansangiz hech vaqt ziddiyatni muvaffaqiyatli yecha olmaysiz. O'ziga va o'zgalarga kechirimli, haqiqiy kechirimli bo'la olish - ziddiyatlar yechimiga qaratilgan qadamlardan biri hisoblanadi. Demak, birinchidan, konkret nizolar davrida avvalgi nizolarlarni yangi nizolarga qo'shib bo'lmaydi, ikkinchidan, ziddiyatlar tarixini qo'zg'ab bo'lmaydi. Chunki opponentingiz ham huddi shu yo'lidan ketishi mumkin. Oldin o'tgan ziddiyatlarni eslash yo'lidan emas, balki muammoni aniqlash yo'lidan ketgan ma'qul.

- Nizolar sharoitida, uning kelib chiqishida, umuman uning rivojida kim ko'proq aybdor ekanligiga bor kuchni berish mumkin emas. Umuman nizolar vaziyatda kim haq, kim noxaq ekanligini aniqlash - nizolarni tupikka kiritish usuli hisoblanadi. Chunki har bir odamning o'z haqiqati mavjud bo'ladi. Shu bois, ziddiyatni yechish - kim aybdor ekanligini qidirish emas. Nizolar yechimini qidirish va ziddiyatdagi aybdor insonni topish va uni jazolash ham emas! Chunki nizolarlarda odatda barcha o'zini noan'anaviy tutishi mumkin, hamma ham g'azabga kirishi, o'zini himoyalash, yoki dag'dag'a uchun qo'pol so'zlarni ishlatishi mumkin. Yoki agressiya bilan duch kelganda inson faqat o'zini himoya qilish yo'liga o'tib olishi mumkin. Nizolarda aybdor shaxs bo'lmaydi! Nizolarda ikki qarama-qarshi manfaat bo'ladi xolos.

Nizolarda ikki qarama-qarshi inson ham asli bo'lmaydi, chunki nizolarda insonlar qarama-qarshiligi aslida manfaatlar qarama-qarshiligi mavjudligini ko'rsatadi, uni oydinlashtiradi xolos. Shu bois, agar siz ziddiyatda opponent shaxsni ayblasangiz, diqqatingizni nizolarni keltirib chiqargan muammoga emas, balki shaxsga yo'naltirgan bo'lasiz. Siz nizolar yechimini emas, balki aybdor shaxsni qidirayotgan bo'lasiz. Siz uchun birovni jazolash, aybiga iqror qildirish muhim, aslida haqiqat esa boshqa tarafda bo'lib chiqishi mumkin. Shu bilan birga, siz boshqa manfaatni, ya'ni o'zingizga yoqmay turgan insonni ayblash, o'zingizni esa oqlash yo'lidan ketgan bo'lasiz. Aslida siz o'zingizni oqlashingiz kerakmi? Yo'q, chunki siz ham aybdor emassiz. Ikkinchidan esa, siz nizolar yechimidan uzoqlashib, uning yechimini boshqa yo'ldan olib ketgan bo'lasiz. Bir-birini turli ayblarda, qilgan ishlarda ayblash orqali hali biror bir nizolar yechilmagan. Bu usulda, ya'ni tomonlar faqat bir-birlarini ayblash usulini qo'llagan vaqtda nizolarni keltirib chiqargan muammo yutib chiqadi. Chunki muammo borasida hech kim o'ylamaydi, muammo esa sizning va opponentizgizning salbiy his-tuyg'ulari ichida yanada chuqurlashib boradi. Demak, nizolar yechimida kim aybdor ekanligini qidirish mutlaqo mumkin emas. Bu noto'g'ri, xato bo'lgan ish. Nizolarda aybdor shaxslar bo'lmaydi. Aybdorni qidirish - uni jazolashni talab etadi. Opponentizgizga «Sen aybdorsan desangiz, u «Meni jazolashmoqchi» deb anglashi tabiiy. Ammo u o'zini aybdor his qilmaydi-ku?! Demak, u «Nima uchun meni jazolashmoqchi?!» deb, hujumga o'tadi. Bu

holatda, opponentning kontrhujumi, aslida, hujum qilish uchun emas, balki o'zini himoya qilish uchun yo'naltirgan bo'ladi.

- Nizolar yechimini topishda fikr va emotsiyalarni muammoga yo'naltirish, vujudga kelgan muammo borasida qayg'urish, butun energiyani muammo mazmunini belgilashga qaratish yaxshi natijalar beradi. Muammo bo'yicha fikrlashing, undan chetga chiqib ketishga o'zingizga va opponentingizga yo'l bermang. Gaplaringiz va so'zlaringiz osuda, bosiq, tinch, hurmat va izzat qilgan holda yuzaga chiqsin. Chunki siz nizolarning kelib chiqishida qarshingizda turgan inson emas, balki uning manfaati yotganini bilasiz. O'ylab ko'ring, balki mana shu manfaatlarda juda ko'p umumiy tomonlar mavjuddir. Balki opponentingiz o'sha umumiy tomonlarni sizga bildirmoqchidir. Muammoni aniq belgilab olsangiz, mana shu savollarga javob topgan bo'lasiz.

- Nizolar vaziyatini manfaatlar to'qnashuvi deb aytdik. Shu bilan birga nizolarda har ikki tomon ham g'olib chiqishi mumkinligini bildik. Shunday ekan, o'z oldingizga nizolarda g'olib kelish, yutib chiqishni maqsad qilib qo'ymang. Sizning maqsadingiz o'z manfaatlaringiz bilan opponentingiz manfaatlarini uyg'unlashtirishdir, ularning o'xshash tomonlarini topib, sizni ham, uni ham qoniqtiradigan yechimga kelishdir. Sizning yutug'ingiz uning yutug'iga teng kelgan holdagina siz nizolar yechimini topgan bo'lasiz. Ya'ni, nizolar vaziyatdan har ikki tomon qoniqqan va tinchlangan, uning yechimidan xursand bo'lgan holdagina «g'olib-g'olib» sharoiti yaratilgan bo'ladi. Shu bois, sizning bosh maqsadingiz - nizolarning adolatli yechimini qidirish va topishdan iborat bo'lmog'i kerak.

3. Shaxsga emas, muammoga hujum qilish.

Nizolar ko'p hollarda bir-biriga yaqin odamlar o'rtasida sodir bo'ladi. Tanimagan odamlar o'rtasidagi nizolarning yechimga kelishi osonroq kechadi. Masalan, ko'chada avariya bo'lib, ikki mashina bir-biriga urilsa, darrov haydovchilar o'zaro kelishishga harakat qilishadi. Chunki bunday ziddiyatlarning o'zaro kelishilgan va xalq ichida qabul qilingan tartiblari mavjud hamda ularga ko'pchilik rioya qilishga, mavjud nizolarni yanada chuqurlashtirmaslikka harakat qiladi. Begona odamlar kelishuv yo'lidan borishadi va ziddiyatda kelishilgan majburiyatlarni to'la

bajarishga urinadi. Nizolardagi nizo shartlari bajarilgandan so'ng, yana har ikki tomon o'zaro begonalashib ketaveradi. Ziddiyat ularni o'zaro muomala qilishga majbur etadi, nizolar yechimidan so'ng ular o'zini erkin, majburiyatlarsiz his qilaveradi.

- Ko'rib chiqilgan mana shu vaziyatda, ko'pchilik, o'zining emotsional holatini ma'lum tartibda ushlashga, o'zini nazorat qilishga harakat qiladi. Chunki, ziddiyatda to'qnashgan odamlar ularga tanish emas. Bu esa, bir narsani ko'rsatadi. Nizo kelib chiqqan vaziyatdagi odamlar qanchalik bizga yaqin bo'lsa, biz shunchalik o'zimizni tabiiy ushlaymiz, buning natijasida esa bizning hissiyotlarimiz ochiqchasiga bayon qilinaveradi. Biz o'z hissiyotlarimizga erk beramiz hamda buni oddiy hol deb bilamiz. Chunki oldimizda turgan odamlar bizga yaqin odamlar. Ular bizni biladi. Aslida, teskarisi bo'lishi kerakdek. Bizga yaqin odamlarga chiroyli munosabat bildirish kerak, o'zgalarga esa o'z emotsiyalarimizni ko'rsataversak bo'ladigandek. Hayotda esa buning teskarisi bo'ladi. Biz o'z yaqinlarimizga bor agressiya va noxush holatimizni bemalol to'kib solaveramiz, chetdagi tanimagan odamlar bilan esa «o'ylashibroq» muomala qilishga harakat qilamiz. Ammo aslida, har qanday ziddiyat holatida o'z emotsiyalarini nazorat qilish - eng to'g'ri yo'l hisoblanadi. Ziddiyatning kelib chiqishida, agar siz uni biror bir yechimga keltirmoqchi bo'lsangiz, shaxsga emas, balki muammoga hujum qilish kerak bo'ladi.

- F. Laroshfukoning ta'kidlashicha, «Odamlar hech qachon mislsiz yaxshi yoki haddan tashqari yomon bo'lmaydilar». Ularning yaxshi va yomon fazilatlarini namoyon etuvchi vaziyatlar bo'ladi xolos. Mana shu vaziyatlarda odamning o'zini tutishi uning madaniyligi belgisi bo'ladi. I.Gyote esa, «Yaqin kishilarimizga o'zlariga munosib muomala qilib, biz ularni battar buzamiz. Agar biz ularga o'zlaridan ko'ra yaxshiroq odamlar deya yoshdoshsak, ularni biz yanada yaxshiroq bo'lishga majbur etamiz» degan.

- Nizolar yechimining topilmasligi, yoki uni qanday to'xtamga keltirishni bilmaslik aynan yaqin bo'lgan odamlar orasini buzadi. Bu nizolarning mavjud katta vayron etuvchi kuchi natijasidir. Shu bois, nizolarda har doim uning yechimini topish yo'llarini qidirish shart! Nizolar yechimini topish yaqin odamlar munosabatini

mustaxkamlash deganidir. Shu bois, nizolar vaziyatda muammo haqidagi o'z g'oyalariningizni shakllantirish, ularni hayotga tatbiq eta olish muhim ahamiyat kasb etadi. G'oyalar qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik yaxshi. Bu yo'llar ichida ikkala tomon uchun ham eng ma'qullarini aniqlash lozim bo'ladi. Muhimi, shaxsga emas, muammoga hujum qilish darkor. Chunki ko'pincha bu shaxs sizga yaqin inson bo'lib, uning aybi isbotlanmagan bo'ladi.

4. Faol tinglash malakasi. Tinglashga tayyorlik.

- Nizolar vaziyatining o'ziga xosligi har ikkala tomon uchun ham his-tuyg'ularning beqiyos darajada o'sganligi bilan harakterlanadi. Inson esa eng avvalo o'z his-tuyg'ulariga quloq solishga odatlangan bo'ladi. Inson uchun, uning ichki «meni» azizroq bo'ladi. Ammo hamma ham o'z hissiyotlarini to'g'ri anglaydimi? Ularni to'g'ri «talqin» (rasshifrovka) qiladimi? Bu - muhim savol. Ikkinchidan, nizolardagi muammoni anglash uchun faqat o'zingizning o'ylaringiz, fikrlaringiz, emotsiyalaringiz, shuningdek mushohadalariningiz, ya'ni argumentlaringiz yetarli bo'ladimi? Shu bois, nizolar yechimi har ikkala tomondan faol tinglash, o'zgani eshitish, uning o'ylari, fikrlari, emotsiyalari, shuningdek mushoxadalari, ya'ni argumentlari qandayligini bilishni talab etadi. Muammoni aniq belgilash va uning chegaralarini ko'rish uchun o'z opponenti fikr va o'ylari, hissiyotlarini to'g'ri belgilash darkor. Opponent fikrlarini bilish esa faol tinglash, opponet fikrlarini to'g'ri baholay olish va talqin qilish, opponent qarashlarini anglash orqaligina ta'minlanishi mumkin.

- Faol tinglash ko'nikmalari o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Ularni shaxs o'zida tarbiyalashi lozim. Faol tinglashning o'z tartib va qonuniyatlari mavjud. Ochiq chehralik, samimiylilik, mushoxadalik, bosiqlik, vazminlik, argumentlarni ochiq va asosli bayon qilish, birovni ayblamay gapirish, mehrli bo'la olish, gaplashganda chetga qarab turmaslik, ko'zni olib qochmaslik, samimiy va ochiq nazar bilan qarash, tahdid soluvchi harakatlar va so'zlardan o'zini tiyish, muloqotga tayyorlikni ko'rsatish, soxta xushomaddan o'zini tiyish, piching va istexzodan mutlaqo foydalanmaslik, birovni kamsitmaslik, o'zini katta olmaslik kabilar ana shunday tartib-qoidalaridan hisoblanadi.

- Agar opponeningiz sizga qo'pol muomala qilsa ham, siz uning qo'polliklariga bosiqlik va hurmat bilan munosabat bildirsangiz, uning o'zi uyalib qoladi, chunki hech kimsa o'zining qalbida «men - madaniyatsizman» deb tan olgisi kelmaydi, hamma «yaxshi odam» bo'lishga intiladi. Siz bilan gaplashayotgan, o'z dardu - hasratini aytayotgan odamdan yuzingizni teskari qilib, bee'tibor, esnab, yuzingizni boshqa tomonga burib gaplashsangiz, bu odamni inson va do'st sifatida o'zingizdan uzoqlashtirgan bo'lasiz.

- Ba'zan odamga uning so'zlarini eshitganingizning o'zi kifoya qiladi. Siz uning so'zlarini diqqat bilan eshitganingizning o'zi uning qalbidagi barcha gina va gudratlarni yuvib ketadi. Oradagi mavjud emotsional tanglik holati yo'qotiladi. Birovni eshitish - juda muhim fazilat va zarur xislatdir. Birovni eshita olish qobiliyati insonning komil shakllanganlik belgisidir. Chunki egoist odamlargina faqat o'ziga quloq soladi. Boshqa, sizga qarama-qarshi bo'lgan tomonning fikrini, uning gaplarini bo'lmasdan va baholamasdan, shuningdek uning so'zlaridan ayb qidirmasdan, uni taxqirlamasdan diqqat bilan eshitish va tinglash, o'zingizni uning o'rniga qo'yib ko'rishga harakat qilish nizolar yechimini topish tartiblardan hisoblanadi. D.I.Pisarev bu haqida shunday degan: «Birovni tushunmoq uchun o'zingni uning o'rniga qo'yib ko'rmog'ing, uning sevinchi va dardini his qilmog'ing lozim».

- Ikki tomonning suhbat va muloqoti nizolar vaziyatlarda birdaniga va o'zicha yuzaga kelmaydi. Muzokara olib borish ikki tomondan ham muloqotga tayyorlikni talab etadi. Muloqot jarayoni ham birdaniga tinch va osuda kechmaydi. Bunga harakat qilmoq va yuqoridagi talablarni bajarishga moyillik darkor bo'ladi. Shu bois, lozim bo'lgan o'rinlarda, o'zingizning nohaq ekanligingizni tan olishga tayyor bo'lish kerak. Chunki, nizolar yechimi ayyorlikni ko'tarmaydi, uning muhim qonuniyatlaridan biri - samimiy va to'g'ri bo'lishlikdir.

5. Birovning his-tuyg'ulariga e'tiborli bo'lish.

- Nizolarda manfaatlar to'qnashuvidan tashqari emotsional-hissiy to'qnashuv ham yuz beradi. Ya'ni, emotsional-hissiy qarama-qarshilik mavjud nizoning tashqi ko'rinishi sifatida o'zini namoyon etadi. Nizolarda ham o'z manfaatlarini ifoda etish maqsadida, ham o'zini himoya qilish uchun har bir inson o'z his-tuyg'ulariga berilib,

esankirab qolishi mumkin. Emotsional esankirash esa nizolar jarayonining to'g'ri va adolatli hal etilishiga zarar etkazishi mumkin. Shu bois, nizolarning yechimida bir tomondan, o'zining his-tuyg'ularini jilovlay bilish, ikkinchi tomondan, o'z opponentining his-tuyg'ulariga e'tiborli bo'lish talab qilinadi. Birovning his-tuyg'ulari mazkur konkret shaxsning aynan konkret shart-sharoitdagi ahvolidan namunasi sifatida baholanishi ma'lum hulosalar qilinishiga yordam beradi. Ya'ni, nizolardagi his-tuyg'ular insonning boshqa insonga yo'naltirilgan doimiy mavjud munosabatini emas, balki birdaniga uyg'ongan va portlash orqali o'zini ifoda etayotgan tuyg'ularini ifoda etadi, xolos. Emotsional portlash - o'tib ketadi. Ularning ortida insonning azaliy, shakllangan va hurmatli munosabati yotgan bo'lishi mumkin.

-Tomonlar o'rtasidagi turli shartnomalar va o'z ma'suliyatingizdagi vazifalarni albatta bajaring.

-Agar sizning sa'y-harakatlaringiz behuda ketayotganligi va yordam bermayotganligini sezsangiz, harakatlaringizni qaytadan boshlang va opponentingiz bilan samimiy o'rtoqlashing.

Shunday qilib, ziddiyatlar yechimida adolatparvarlik mezonlaridan sanalgan - e'tiborni muammoga qarata olish, muammoda shaxslarni ayblamaslik, muammoni aniqlash, muammo mazmunida fikrni jamlash, shaxsga emas, muammoga hujum qilish, o'zgani tinglashga tayyorlik va faol tinglash malakalarini qo'llash, birovning his-tuyg'ulariga e'tiborli bo'lish, o'z va'dalari va amallariga ma'suliyatli bo'lish kabi qoidalariga rioya etish nizolar yechimini qidirish va uni hal etishga yo'naltirilgan talablardan hisoblanadi. Ana shu talablarga qat'iy buysunish muammoda har ikki tomonning aziyat chekmasdan, hafa bo'lmasdan, o'z insoniy qadriyatlarini saqlagan va o'zga kishi nafsoniyatiga tegmagan tarzda chiqib ketish, muammoni hal etish imkoniyatini beradi. Nizolar yechimida va bo'lib o'tgan voqea tahlilida umr bo'yi bo'lib o'tgan nizolar va ular tarixini emas, balki kelajakda qanday qilib mazkur nizolar va ular tarixisiz yashashni o'rganish lozim bo'ladi. Nizolarda ortga, tarixga qarab emas, balki oldinga, istiqbolga qarab yashash darkor.

3.3. O'smirlardagi ichki nizolar va ularni bartaraf etishning tadqiqot natijalari.

O'smirlik davrida xarakter xususiyatlarining ijtimoiy muhim shaxsiy sifatlari shakllanadi. Muloqot va hulqning barqaror shakllari, insonlarga, voqealarga va vaziyatlarga hissiy munosabat usullari tarkib topadi. Shu bilan birga bu davr o'z-o'zini anglash va bolalarcha dunyoqarashning o'zgarishi, «Men»ning namoyon bo'lishi, o'zining imkoniyat va qobiliyatlari, o'z-o'ziga noadekvat baho berishi bilan harakterlanadi.

Bu yosh davrda bolalardagi o'z-o'ziga ishonchsizlik xususiyati shakllanishining oldini olish, aniqlangan kamchilikni o'z vaqtida korreksiya qilish bolalarda faollikni shakllantirishda asosiy talab hisoblanadi. Bu hol bolalarda yuzaga keladigan ichki nizolarni to'g'ri tahlil qilishga va ularni imkon darajasida bartaraf etishga bolalarni o'rgatishni taqozo etadi. O'smir shaxsiga qo'yiladigan talablar bilan uning ichki imkoniyatlari o'rtasida mutanosiblik bo'lishiga erishish juda muhimdir.

O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi, oila va maktab ma'muriyati faoliyatini o'rganib bo'yicha tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqot ishlarini o'tkazish maqsadida ilmiy raxbarim, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent K.Xasanova raxbarligida ijtimoiy so'rovnoma ishlab chiqildi va mazkur so'rovnoma asosida maxalla kengashi, oila va maktab ma'muriyati bilan tadqiqot ishlari o'tkazildi. Tadqiqot ishlari Jizzax shaxridagi Zilol mahallasida, Jizzax shaxridagi 25-sonli umumta'lim maktabida va Xalqobod maxallasidagi 20 ta oilada o'tkazildi. Quyida o'tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

1-jadval

O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatini o'rganish natijalari

№	Savollar	Mahalla faollarining javoblari (20 ta)	
		%	soni
1.	O'smirlar o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelganda mahalla		

	kengashi qanday yo'l tutishi kerak? a) mahalla kengashi masalani o'rganadi b) mahalla kengasha masalaga e'tibor qaratmaydi v) mahallada masala muhokama qilinmaydi g) mahallada masalani o'rganib, nizoni bartaraf etish chorasini ko'radi d) bunday vaziyatda oila bilan hamkorlikda muammoni hal etadi	15.0 - - 35.0 50.0	3 - - 7 10
2.	O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla pedagog-psixologi nima qiladi? a) nizoni o'rganib, kerakli maslahat beradi b) nizoni o'rganib, ota-onalar bilan ishlaydi v) nizoni oldini olish maqsadida turli xil tadbirlar o'tkazadi g) tegishli organlarga xabar beradi d) nizoni o'rganib, ota-ona, mahalla bilan bartaraf etadi	10.0 20.0 20.0 - 50.0	2 4 4 - 10
3.	O'smirlar o'rtasidagi ichki nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyatiga qanday baho berasiz? a) nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi faoliyati yaxshi b) nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashining faoliyati sust v) nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashining faoliyati yomon g) nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi a'zolari e'tibor bermaydi d) hozirgi kunda faoliyati sust, bu holatda ko'proq mahalla nozirlari ish olib bormoqda	40.0 25.0 - 10.0 25.0	8 5 - 2 5

O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda maxalla kengashi faoliyatini o'rganish natijalari (1-jadval) asosida aytishimiz mumkin, so'rovnomadagi o'smirlar o'rtasidagi ziddiyatlar yuzaga kelganda mahalla kengashi qanday yo'l tutishi kerak? Degan savolga mahalla kengashi faollarining 15% mahalla kengashi masalani o'rganadi, 35% mahallada masalani o'rganib, nizoni bartaraf etish

chorasini ko'radi, 50% faollar esa bunday vaziyatdan oila bilan hamkorlikda muammoni hal etadi degan fikrlarni bildirganlar. Bizning nazarimizda o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda mahalla kengashi a'zolarini oila bilan hamkorlikda mazkur muammoni hal etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu so'rovnomaning ikkinchi savoliga mahalla kengashi faollarining 10% mahalla pedagog-psixologi nizoni o'rganib, kerakli maslaxat beradi, 20% nizoni o'rganib ota-onalar bilan ishlaydi, 20% nizoni oldini olish maqsadida turli xil tadbirlar o'tkazadi, 50% faollar nizoni o'rganib, ota-ona va mahalla bilan bartaraf etadi degan fikrni tanlaganlar. Bizning fikrimizcha, mahalla pedagog-psixologi nizoni o'rganib chiqib, ota-ona va mahalla faollari bilan birgalikda muammoni bartaraf etishi keyinchalik oila va mahalla o'rtasidagi hamkorlikni samarali bo'lishiga yordam beradi. So'rovnomaning uchinchi savoliga mahalla faollarining 40% nizolarni bartaraf etish mahalla kengashi faoliyatiga yaxshi baho berishgan, 25% esa bu savolga mahalla kengashi faoliyatini sust baholashgan, 10% faollar mahalla kengashi a'zolari bu masalaga e'tibor berishmaydi degan fikrni bildirsalar, 25% esa bu masalada mahalla nozirlari ishlaydilar degan fikrni bildirganlar.

Ikkinchi so'rovnomada o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda oilani roli bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalarini tahlil qilib chiqdik (2-jadval).

2-jadval

**O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda oilaning rolini o'rganish
natijalari**

№	Savollar	Oilalarning javoblari (20 ta)	
		%	Soni
1.	O'smirlar o'rtasida ziddiyatlarga ota-onalarning munosabati		
	a) ota-onalar masalaga jiddiy qaraydi va o'rganadi	25.0	5
	b) ota-onalar masalaga e'tibor qaratmaydi	-	-
	v) maktabda ota-onalar kengashida masala muhokama qilinadi	15.0	3
	g) mahallada ota-onalar bu masalani o'rganib, nizoni bartaraf		

	etish chorasini ko'radi	25.0	5
	d) vaziyatni chuqur o'rganib, farzand tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratadi	35.0	7
2.	O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda ota-onalarning psixolog bilan hamkorligi nimalardan iborat?		
	a) nizoni o'rganib, kerakli maslahat beradi	25.0	5
	b) nizoni o'rganib, ota-onalar bilan ishlaydi	25.0	5
	v) nizoni oldini olish maqsadida ota-onalar o'rtasida turli xil tadbirlar o'tkazadi	15.0	3
	g) tegishli organlarga xabar beradi	-	-
	d) nizoni oldini olish maqsadida ota-onalar bilan doimiy ravishda muloqatda bo'lib turadi	35.0	7
3.	O'smirlardagi ichki nizolarni bartaraf etishda oila a'zolarining hamkorligiga qanday baho berasiz?		
	a) nizolarni bartaraf etishda oila a'zolarining hamkorligi yaxshi	40.0	8
	b) nizolarni bartaraf etishda oila a'zolarining hamkorligi sust	15.0	3
	v) nizolarni bartaraf etishda oila a'zolarining hamkorligi yomon	10.0	2
	g) nizolarni bartaraf etishda oila a'zolari e'tibor bermaydi	10.0	2
	d) nizolarni bartaraf etishda oila a'zolari har doim ham hamkorlik qilmaydi	20.0	5

O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda oilaning rolini tadqiq qilganimizda (2-jadval) quyidagi natijalarga erishdik. So'rovnomaning "O'smirlar o'rtasidagi ziddiyatlarga ota-onalarning munosabati" savoliga oila a'zolarining 25% ota-onalar bu masalaga jiddiy qaraydi va o'rganadi degan javobni tanlaganlar, 15% maktabda ota-onalar kengashida muhokama qilinadi. Oila a'zolari 25% "Maxallada ota-onalar bu masalani o'rganib, nizoni bartaraf etish chorasini ko'radi" javobini, 35% esa "Vaziyatni chuqur o'rganib, farzand tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratadi" degan javobni tanlaganlar. Bizningcha, o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etish masalasida oila bu muammoni chuqur o'rganib, farzand tarbiyasiga chuqur e'tibor qaratishi yaxshi samara berishi mumkin, chunki, tarbiya oiladan boshlanishi lozim.

So'rovnomaning ikkinchi savoliga 25% oila a'zolari psixolog nizoni o'rganib, kerakli maslaxatni beradi va nizoni o'rganib, ota-onalar bilan ishlaydi degan javobni tanlaganlar. Oila a'zolarining 15% psixolog nizoni oldini olish maqsadida ota-onalar o'rtasida turli xil tadbirlar o'tkazadi, 35% esa psixolog nizoni oldini olish maqsadida ota-onalar bilan doimiy ravishda muloqotda bo'lib turadi degan javobni tanlaganlar. So'rovnoma savollariga berilgan javoblarni tahlil qilganda ota-onalarning psixolog bilan hamkorligida o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda ota-onalar bilan doimiy muloqotda bo'lishi bizning nazarimizda yaxshi natijalar berishi mumkin.

Tadqiqotimizda o'smirlardagi nizolarni bartaraf etishda oila a'zolarining hamkorligi masalasi ham o'rganildi. Bu masala bo'yicha oila a'zolarining 40% nizolarni bartaraf etishda oila a'zolari hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilganligini qayd etganlar, 20% esa nizolarni bartaraf etishda oila a'zolari har doim ham e'tibor beravermaydilar, qolgan 10-15% nizolarni bartaraf etishda oila a'zolarining hamkorligi yomon va sust degan javob variantini tanlaganlar. Bizning nazarimizda o'smirlardagi nizolarni bartaraf etishda oila a'zolarining hamkorligiga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki o'smirlik yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda oiladagi tarbiyada oila a'zolarining barchasi birdek ishtirok etishi samarali natijaga olib kelishi mumkin.

Uchinchi so'rovnomada o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda maktab ma'muriyati faoliyatini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalarini tahlil qilib chiqdik (3-jadval).

3-jadval

**O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda maktab ma'muriyati
faoliyatini o'rganish natijalari**

№	Savollar	O'qituvchilarning javoblari (20 ta)	
		%	soni

1.	O'smirlar o'rtasida ziddiyatlar bo'yicha maktab ma'muriyati qanday ishlarni amalga oshiradi?		
	a) maktab ma'muriyati masalani o'rganadi	35.0	7
	b) maktab masalaga e'tibor qaratmaydi	-	-
	v) maktab kengashida masala muhokama qilinmaydi	15	3
	g) maktab kengashi masalani o'rganib, nizoni bartaraf etish chorasini ko'radi	35.0	7
	d) muammoning yechimini ota-onaga yuklaydi va ziddiyatlardan qochadi	15.0	3
2.	O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda maktab psixologi nima qiladi?		
	a) nizoni o'rganib, kerakli maslahat beradi	45.0	9
	b) nizoni o'rganib, ota-onalar bilan ishlaydi	15.0	3
	v) nizoni oldini olish maqsadida turli xil tadbirlar o'tkazadi	15.0	3
	g) tegishli organlarga xabar beradi	-	-
	d) psixologlar nizo paydo bo'lganidan so'ng undan xabardor bo'lib, so'ngra ota-onalar bilan ishlayapti	25.0	5
3.	O'smirlar o'rtasidagi ichki nizolarni bartaraf etishda maktab ma'muriyati faoliyatiga qanday baho berasiz?		
	a) nizolarni bartaraf etishda maktab kengashi faoliyati yaxshi	35.0	7
	b) nizolarni bartaraf etishda maktab ma'muriyati faoliyati sust	15.0	3
	v) nizolarni bartaraf etishda maktab ma'muriyati faoliyati yomon	-	-
	g) nizolarni bartaraf etishda maktab pedagogik jamoasi e'tibor bermaydi	10.0	2
	d) nizolarni oldini olish va bartaraf etishda maktab psixologi faoliyati chuqurlashtirilsa va ish haqi oshirilsa yaxshi natija beradi	40.0	8

O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda maktab ma'muriyatining faoliyatini o'rganish borasida olib borilgan tadqiqot ishida so'rovnoma o'tkazildi (3-jadval). So'rovnomaning "O'smirlar o'rtasida ziddiyatlar bo'yicha maktab ma'muriyati qanday ishlarni amalga oshiradi" degan savolga maktab jamoasi a'zolarining 35% maktab ma'muriyati masalani o'rganadi va maktab kengashi

masalani o'rganib, nizoni bartaraf etish chorasini ko'radi degan javoblarni tanlaganlar. Maktab jamoasi a'zolarining 15% esa maktab kengashida masala muhokama qilinmaydi va muammoning yechimini ota-onaga yuklaydi, ziddiyatlardan qochadi degan javob variantini tanlaganlar. Bizning nazarimizda, o'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda maktab jamoasi o'smirlarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda oila bilan hamkorligini kuchaytirishi lozim, chunki mahalla-maktab-oila konsepsiyasini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

So'rovnomaning "O'smirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishda maktab psixologi nima qiladi" degan savolga maktab jamoasi a'zolarining 45% nizoni o'rganib, kerakli maslahatni beradi degan javobni tanlaganlar, 25% nizo paydo bo'lgandan so'ng ota-onalar bilan ishlayapti, 15% esa nizoni o'rganib, ota-onalar bilan ishlaydi va nizoni oldini olish maqsadida turli tadbirlar o'tkazadi degan javoblarni tanlaganlar.

So'rovnomaning "O'smirlar o'rtasidagi ichki nizolarni bartaraf etishda maktab ma'muriyati faoliyatiga qanday baho berasiz" degan savolga maktab jamoasi a'zolarining 35% nizolarni bartaraf etishda maktab kengashi faoliyatiga ijobiy baho berishgan, 40% jamoa a'zolari nizolarni bartaraf etishda va uning oldini olishda maktab psixologi maktab psixologi faoliyatiga chuqurroq e'tibor qaratilishi va uning ish haqi oshirilishi yaxshi natija berilishini ta'kidlab berilishini ta'kidlab o'tganlar, 15% respondentlar esa nizolarni bartaraf etishda maktab ma'muriyati faoliyati haqida salbiy fikr bildirganlar, 10% esa nizolarni bartaraf etishda maktab pedagogik jamoasining e'tiborsizligini e'tirof etganlar.

O'tkazilgan tadqiqot natijasida o'smirlardagi nizolarni bartaraf etish masalasida aytishimiz mumkinki, bu muammoning yechimini topishda maktab pedagogik jamoasining o'rni muhimligini ta'kidlash joiz. Shu bilan birga o'smirlarning barkamol qilib tarbiyalash jarayonida oila-mahalla-maktab konsepsiyasida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirilishi muhim muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari tahlilidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Mahalla kengashi mazkur muammoni o'rgangan holda oila bilan hamkorlikda hal qilishi;

2. Mahalla pedagog-psixologi nizoni o'rganib, ota-onalar bilan muammoni mahalla kengashi a'zolari bilan birgalikda faoliyat yuritadi;

3. Ota-onalarning o'smirlar psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratilishi;

4. Mahalla va maktab psixologi bilan ota-onalarning hamkorligini kuchaytirish;

5. Maktab pedagogik jamoasini mazkur masalani hal etishiga ahamiyat berishi;

6. O'smirlar tarbiyasi borasida psixologlarning ma'suliyatini oshirish va ularning faoliyatiga e'tiborni kuchaytirish.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, maktabda psixologik xizmatni rivojlantirishning zamonaviy shart-sharoitlarini kengaytiradi va maktab psixologlari faoliyati va tarbiyaviy ishlarining dasturini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar, inovatsion dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Bob yuzasidan xulosalar

Mazkur uchinchi bobning birinchi bandi: «O'smirlarda nizoli vaziyatlarning psixologik tahlili» deb nomlangan va unda bola va o'smir shaxsining rivojlanishi uchun tajovuzkorlik ko'rinishini tahlil qilingan.

Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Shu sababli bizda o'g'il va qizlarni 10–11 dan 14–15 yoshigacha o'smirlik yoshida deb hisoblanadi.

Venalik psixolog Z.Freyd va uning shogirdlari o'smirlik davrini baholashda insonga azaldan berilgan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan o'z mavqeini belgilashga ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar. Bu intilish go'yoki xudbinlik, boshqa kishilarni mensimaslik, paydo bo'lishga, atrof-muhit bilan kelisha olmaslikka, hatto nizolarga olib kelar, ongsizlik ehtiyojlari va mayllari shaxsning faolligini belgilar emish. Sobiq sovet psixologlari Z.Freyd nazariyasining mutlaqo asossizligini ta'kidlab, o'smirda imkoniyat bilan

talabchanlik o'rtasidagi kelishmovchilik, o'zini ko'rsatishga moyillik va o'z ichki dunyosiga qiziqishning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanishini asoslab berdilar.

Bola va o'smir shaxsining rivojlanishi uchun tajovuzkorlik ko'rinishigina emas, uning natijasi va atrofdagilarning noto'g'ri reaksiyasi xavflidir. Qachonki zo'ravonlik e'tibor, hukmronlik, tan olish, pul, boshqa afzalliklar bergan holatda bolalar va o'smirlarda katta ehtimol bilan kuch madaniyatiga asoslangan ijtimoiy ishlaydigan va katta odamlar (masalan, jinoiy guruhlar) asosida tuzilgan axloq shakllanadi. Atrofdagilarning tajovuzni kuch bilan bostirishga urinishlari ko'p hollarda qarama-qarshi kutilgan samaraga olib keladi.

Mazkur uchinchi bobning ikkinchi bandi:»Mahallalarda o'smirlar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etuvchi psixokorreksion mashqlar tavsifi» ga bag'ishlangan.

Nizolar ko'p hollarda bir-biriga yaqin odamlar o'rtasida sodir bo'ladi. Tanimagan odamlar o'rtasidagi nizolarning yechimga kelishi osonroq kechadi.

Nizolar vaziyat va uning yechimini qidirish juda katta hayotiy tajriba beradi. Biz agar nizolar yechimi bo'yicha bilimlarga ega bo'lmagan bo'lsak ham, real nizolar jarayonida ba'zi xulosalarni qilamiz va o'z hayotiy tajribamizni oshirib boramiz. Shu bois, har bir vujudga kelgan nizolar bu, sizning o'sish va ulg'ayish jarayoningiz hisoblanadi. Nizolarni to'g'ridan to'g'ri, uni bo'yamasdan qabul qilish, faktlarga asoslanishdan so'ng, nizolarning ideal darajada hal qilinishi mumkinligini hayol qilishdan voz kechib, nizolarga real va ijodiy yondashuvni boshlashni talab etadi. Nizolarga real yondashuv qiyinchiliklarni bo'yamasdan va bo'rttirmasdan qabul qilish, vaziyatni ob'ektiv baholashni bildiradi.

Mazkur uchinchi bobning uchinchi bandi: «O'smirlardagi ichki nizolar va ularni bartaraf etishning usullari»da o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarining tahlili va tadqiqotnatijalari asosida tavsiyalar berilgan.

Shunday qilib, ziddiyatlar yechimida adolatparvarlik mezonlaridan sanalgan-e'tiborni muammoga qarata olish, muammoda shaxslarni ayblamaslik, muammoni aniqlash, muammo mazmunida fikrni jamlash, shaxsga emas, muammoga hujum qilish, o'zgani tinglashga tayyorlik va faol tinglash malakalarini qo'llash,

birovning his-tuyg'ulariga e'tiborli bo'lish, o'z va'dalari va amallariga masuliyatli bo'lish kabi qoidalariga rioya etish nizolar yechimini qidirish va uni hal etishga yo'naltirilgan talablardan hisoblanadi. Ana shu talablarga qat'iy buysunush muammoda har ikki tomonning aziyat chekmasdan, xafa bo'lmasdan, o'z insoniy qadriyatlarini saqlagan va o'zga kishi nafsoniyatiga tegmagan tarzda chiqib ketish, muammoni xal etish imkoniyatini beradi.

XULOSA

O'smirlar bilan ishlash azaldan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Bu muammoning yuzaga kelish sabablarini chuqur tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, tug'ilgan bolaning uni dunyoga keltirgan shaxslarning kimligi, ikkinchidan u qanday ijtimoiy muhitda tug'ilib voyaga yetib, ulg'ayotganligiga e'tiborni qaratishimiz lozim. Ko'pchilikning fikriga ko'ra, oxirgi paytlarda o'smirlar bilan bog'liq muammolarning tez – tez uchrab turishi va ular sonining keskin oshganligi tasdiqlanmoqda. Shuningdek, bu muammoni bir qancha tashqi sabablarga bog'lash mumkin, ya'ni, hozirgi vaqtda axborot oqimining yuqoriligi (uzluksiz televizor ko'rish, kompyuterda har xil o'yinlar o'ynash, internet tizimidagi norasmiy saytlar orqali har xil nomaqbul axborotlarni o'zlashtirish) yoki kattalarning e'tibori, oiladagi iqtisod va hokazolar.

Xulosa qilib aytganda, boladagi salbiy illatlarni oldini olish va ularni bartaraf etishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

- birinchi o'rinda, har bir yosh davrni o'ziga xos psixologik rivojlanish darajalarini aniqlab olish lozim.

- ikkinchi o'rinda, bolani tarbiyasidagi sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni o'rganib chiqish kerak.

- uchinchi o'rinda, o'smirlarning psixologik rivojlanishini me'yorlashtirishga yo'naltirilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish lozimdir.

Shunga amal qilgan holda quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- Maktab hududida ko'cha- kuyda, o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota- onalar va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

- Bolaga bo'sh vaqtdan unumli foydalanish yo'llarini o'rgata borish va uni nazorat qilish.

- Ijtimoiy foydali mehnat turlaridan unumli va oqilona foydalanish.

- Bolani uning qiziqish va qobiliyatini hisobga olgan holda to'garaklarga qatnashtirish.

- Barcha darslarda agar tarbiyasi og'ir bolalar bo'lsa ularni iloji boricha bir daqiqa ham nazardan qochirmaslik.

- Maktabda o'tkaziladigan turli tadbirlar: har-xil kechalarda, o'z tengdoshlari davrasida, o'rtoqlari orasida unga so'z navbatini berish, ularda faol bo'lishini ta'minlash.

- Rag'batlantirish metodlarini ishlatib ko'rish. Lozim topilganda olgan baholarga yarim ball, bir ball qo'shish, yutuqlarini sinfda, maktabda me'yorida ta'kidlab qo'yish.

- Agar bola tartibsiz, intizomsiz davraga o'ralashib kirib qolgan bo'lsa, uni tezlik bilan o'sha davradan ajratib olib, so'ng o'sha tarbiyasi og'ir bolani «yaxshi» va «a'lo» baholarga o'qiydigan intizomli o'quvchilarga biriktirib qo'yish.

- Mahalla, oila va maktab hamkorligi yanada mustaxkamlanishi kerak.

-Mahallalarda profilaktik tadbirlar o'tkazilib turishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasining qonunlari:

1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2012. -40 b.

1.2. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". –Toshkent: Sharq, 1997. -63 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qarorlari va boshqa huquqiy – me'yoriy xujjatlar.

2.1. "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi.-Toshkent: O'zbekiston, 2010.-54 b.

2.2. "Mustahkam oila yili" Davlat Dasturi. –Toshkent: O'zbekiston 2012.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari:

3.1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. -380 b.

3.2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. -366 b.

3.3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 384 b.

3.4. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 429 b.

3.5. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. -21 b.

3.6. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. 7-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 410 b.

3.7. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 528 b.

3.8. Karimov I.A. Vatanimiz ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. – 432 b.

3.9. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 432 b.

3.10. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2003. – 320 b.

3.11. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2005. -448 b.

3.12. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi O'zbekiston Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. -55 b.

3.13. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2011. -440 b.

3.14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. -174 b.

4. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar, maqolalar to'plami:

4.1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: O'qituvchi, 1992.

4.2. Jakbarov M. Komil inson g'oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil. – Toshkent: Abu Ali Ibn Sino, 2000. – 18 b.

4.3. Jabborov I. O'zbeklar turmush tarzi va madaniyati. -Toshkent: O'qituvchi, 2003. -208 b.

4.4. Shoumarov G'.B, Haydarov I.O. Oila psixologiyasi. Akademik litsey va kasb-xunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. -Toshkent: Sharq. 2008, -296 b.

4.5. “Temur tuzuklari”. T., 1991, – 100 b.

4.6. Mavlonova R, To'rayeva O, Xoliqberdiyev K. Pedagogika. Kasb-xunar kollejlari uchun darslik. -Toshkent: O'qituvchi, 2008, -496 b.

4.7. Uljayeva Sh. Amir Temur va temuriylar davrida milliy davlatchilikni rivojlanishi. -Toshkent: Fan, 2005. –268 b.

4.8. Xolbyekov A.J., Matiboyev T.B. Ijtimoiy adolat va demokratiya: barqaror taraqqiyot yo'lida. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. –186 b.

- 4.9. Xonazarov Q.X. Milliy o'zlikni anglash va umuminsoniy qadriyatlar. - Toshkent:Fan, 1994. –126 b.
- 4.10. Mansurov A, Jo'rayev U, Lafasov M. Hadis ilmi saboqlari. -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1999.
- 4.11. Возрастная психология: от молодости до старости: Учебное пособие для студентов и преподавателей учеб.завед /М.В Гамезо, В.С Герасимова, Г.Г Горелова, Л.И Орлова.М.,1999.
- 4.12. Shoumarov G'.B. 1001 savolga psixologning 1001 javobi.– Toshkent: Mehnat, 2001, -192 b.
- 4.13. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati:nazariya va horijiy tajriba. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
- 4.14. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
- 4.15. Nosirxo'jayev S, Lafasov L, A'zamxo'jayeva S. Ma'naviyat asoslari. Akademik lisey va kasb-xunar kollejlari uchun darslik. Toshkent:, "Turon – iqbol", 2007.
- 4.16. Ochilov M, Ochilova N. O'qituvchi odobi. –Toshkent: O'qituvchi, 1997, 134 b.
- 4.17. Ochildiyev A.S. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. –Toshkent: Muharrir, 2009. -96 b.
- 4.18. Abdurasulov R. Maktab psixologining kundalik kitobi. -Jizzax: Sangzor. 2005. –116 b.
- 4.19. Ворожейкин И.Э., Кибанов А.Я., Захаров Д.К. Конфликтология. Учебник для вузов. М.: «Изд-во» 2004.
- 4.20. Shodiyev N. Pedagogika fanidan muammoli vaziyatlar va o'quv topshiriqlari.-Toshkent: SamDU. 2004. -115 b.
- 4.21. Minavarov A. K. Oilaviy tarbiya effektivligini pedagogik shart-sharoitlari. -Toshkent: Fan, 1989. 17 b.
- 4.22. Ансупов А. Я., Шипилов А.И. Конфликтология. М.: «Изд-во» 1999.
- 4.23. Громова О. Н. Конфликтология. М.: «Изд-во» 1993.

- 4.24. G'oziyev E.F. Psixologiya. Toshkent: 1994.
- 4.25. Давлетшин М.Г. Общая психология. Т.: 2002.
- 4.26. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogika psixologiya». O'quv metodik qo'llanma. TDPU, 2004.
- 4.27. Зайцев А. К. Социальный конфликт на предприятии. - Калуга: КИСИ. 1999.
- 4.29. Здравомыслов А. Г. Социология конфликта. М.: «Изд-во» 1995.
- 4.30. Karimova V.M. Psixologiya. -T.:2004 y.
- 4.31. Rahmatullayev. M.A. Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish. –T.: 2001.
- 4.32. Степанов Э.И. Современная конфликтология. Москва: 2008.
- 4.33. To'ychiyeva G.U., Asadova E. Yoshlar va konfliktlar yechimi. Manual.T.: 2008.
- 4.34. Уткин А. Я. Конфликт: теория и практика. -М. «Изд-во» 1998.
- 4.35. Хасан Б.И. Конструктивная психология конфликта. СПб., М. «Изд-во» 2003.
- 4.36. Fel'dshteyn D.I. O'smir davri taraqqiyoti. -М. MGU, 1996.
- 4.37. G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi: nazariy eksperimental taxlil. – Toshkent: Noshir. 2010, -360 b.

5. Jurnal va gazetalardagi maqolalarga havolalar:

- 5.1. Maktab va hayot. Ilmiy – metodik jurnali. 3/2008. -37 b.
- 5.2. O'zbekiston oilasi: istiqbol va taraqqiyot. Mavzusidagi Respublika ilmiy – amaliy anjumanning maqolalar to'plami. –Jizzax. 2008. -88 b.

6. Internet sahifalariga havolalar.

- 6.1. “Navoiypress” gazetasi tahririyati sayti. <http://navoiypress.uz>
- 6.2. Qarashlar, shaxslar va jamiyat portal. <http://fikir.uz>
- 6.3. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi rasmiy portal. <http://www.edu.uz>

6.4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi sayti. <http://www.lex.uz>